

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY  
MARKAZI**

**“PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI”  
KAFEDRASI**

Xalq ta’limi muassasalari axborot resurs markazi (kutubxona) rahbar va xodimlari uchun “Kutubxonachining kasbiy kompetentligi va mahorati” moduli bo‘yicha

**O‘QUV METODIK MAJMUA**

**Samarqand – 2020**

Ushbu o‘quv metodik majmua markaz direktori huzuridagi yig‘ilishning 2020- yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan

**Tuzuvchi:**

**U.Utanov** – Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti

**Taqrizchilar:**

**G.Fayzullaeva** – Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti

**A.Abdumannotov**

– JTBMIMTOTMO hududiy markazi Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

Ushbu o‘quv metodik majmua “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasining 2020- yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ G.Fayzullaeva

**“KELISHILDI”**

O‘quv va ilmiy ishlar

bo‘yicha direktor o‘rinbosari

\_\_\_\_\_D.Urinboyeva

## KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmonida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida kutubxonachilar malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, kutubxonachining kasbiy kompetentligi va mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, faoliyat jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, kutubxonachi faoliyatida innovatsion yondashuvlar, kutubxonachi faoliyatini tashkil etishning zamonaviy usullarini o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular xalq ta'limi tizimi kutubxonachi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan bo'lib, kutubxonachi xodimlarini zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahorati va o'quv-uslubiy faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, barcha malaka yo'nalishlariga quyilgan malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- tinglovchilarda ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat to'g'risidagi tushunchalarini takomillashtirish;
- umumiy o'rta ta'lim kutubxonachi xodimlarini jahon tajribalardan faoliyat jarayonida foydalanish to'g'risida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kutubxonachi xodimlar tinglovchilarini ta'lim tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Tinglovchi:

- pedagogikaning asosiy kategoriyalarini;
- ta'lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlarini;
- pedagogik texnologiya mohiyati va uning turlarini;
- rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini bilishi;
- didaktika va metodikani farqlay olish;
- faoliyat jarayonini texnologiyalashtirish;
- o'qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va ta'lim oluvchilarga etkazish ko'nikmalariga;
- ta'lim-tarbiya texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llay olish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida pedagogik texnologiyani tanlay olishi;
- zamonaviy talablar asosida faoliyatlarini tashkil etish malakalariga;
- ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiya tamoyillariga mos ravishda pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirish;
- ta'lim samaradorligini oshirish uchun xorij tajribalaridan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim;

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Kutubxonachining kasbiy kompetentligi va mahorati” moduli bo'yicha moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda pedagogikaning nazariy asoslari, mutafakkirlarning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari, ta'lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari, pedagogik texnologiya mohiyati va turlari, interfaol metodlar mazmuni va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi va xorij tajribalar, haqida ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda xalq ta'limi muassasalari axborot resurs markazi (kutubxona) rahbar va xodimlarining kompetensiyasi, kompetensiya turlari, pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, interfaol metodlardan ta'lim jarayonida foydalanish o'rgatiladi.

Darslarda texnik vositalardan, blits-so'rovlar, test so'rovlari, amaliy mashg'ulotlar, aqliy hujum, keys-stadi, FSMU, Venn diagrammasi, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa bloklar va modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modulning mazmuni o'quv rejadagi “O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlarining huquqiy-me'yoriy asoslari”, “Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik maxorat”, “Mutaxassislik fanlari” bloklari modullari bilan uzviy bog'langan holda barcha malaka yo'nalishlarining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilarga barcha malaka yo'nalishlari faoliyatini tashkil etish metodikasini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

| T/R | Modul mavzulari   | Tinglovchilarning o'quv yuklamalari |         |        |                 |
|-----|---|-------------------------------------|---------|--------|-----------------|
|     |   | Jami                                | Ma'ruza | Amaliy | Mustaqil ta'lim |
| 1.  | Pedagogik mahoratning nazariy asoslari va uning amaliy faoliyatdagi o'rni                                   | 2                                   | 2       |        |                 |
| 2.  | Kutubxonachining faoliyat jarayonida kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari | 2                                   |         | 2      |                 |
| 3.  | Zamonaviy kutubxonachi imidji   | 2                                   |         | 2      |                 |
| 4.  | Kutubxonachining innovatsion faoliyati va kreativligi   | 2                                   |         | 2      |                 |
| 5.  | Kutubxonachining faoliyat jarayonini loyihalash va innovatsion ta'lim texnologiyalari                       | 2                                   |         | 2      | 2               |
| 6.  | Interfaol ta'lim mohiyati va ularni amalda qo'llash   | 2                                   |         | 2      |                 |
|     | Jami:   | 14                                  | 2       | 10     | 2               |

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1. Pedagogik mahoratning nazariy asoslari va uning amaliy faoliyatdagi o'rni (2-soat).

“Mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalarining mazmuni. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. O'qituvchining kommunikativ kompetentligi. Nutq texnikasi va madaniyati. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish. Pedagogik muloqot uslublari va ularni to'g'ri tanlash. Pedagogik deontologiya.

Pedagogik muloqot madaniyati. Pedagogik muloqot yoʻnalishlari va uslublari (avtoritar, demokratik, liberal). Auditoriyada shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish va guruhni optimal boshqarish. Pedagogik nizolarni samarali hal etish yoʻllari. Pedagogik nizolarni hal etishda qoʻllaniladigan usullar. Pedagogik nizo subʼektlariga koʻrsatiladigan pedagogik-psixologik yordam turlari. “Nizo” va “pedagogik nizo” tushunchalarining mohiyati. Pedagogik nizoga xos belgilar. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar. pedagogik nizolarning turlari. Pedagogik nizolarni samarali hal etish yoʻllari.

## **AMALIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashgʻulot. Kutubxonachining faoliyat jarayonida kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari (2 soat).**

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatlari (ijtimoiy kompetentlik, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ) kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik. A.K.Markova va B.Nazarovalarning pedagogga xos kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslariga nisbatan yondashuvlari.

Kutubxonachining oʻz ustida ishlashi. Pedagogning oʻz ustida ishlash bosqichlari.

Kutubxonachining oʻz ustida ishlash modeli. Oʻzini oʻzi tahlil qilish. Oʻzini oʻzi baholash. Oʻzini oʻzi samarali baholash omillari. Oʻz-oʻzini baholash formulasi. Oʻzini-oʻzi baholash modeli.

Kutubxonachining oʻz-oʻzini rivojlantirishi. Oʻz-oʻzini rivojlantirish vazifalari. “Individual rivojlanish dasturi”. Pedagogning individual rivojlanish dasturi. Pedagog “Individual rivojlanish dasturi”ning tarkibiy elementlari. Kasbiy rivojlanish shkalasi.

**2- amaliymashgʻulot: Zamonaviy pedagog imidji (2 soat).**

Zamonaviy kutubxonachi imidji. Kutubxonachining oʻz-oʻzini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib borishi. Kutubxonachilik kasbining ijtimoiy ahamiyati. Kutubxonachining nazokati, samimiylik va insonparvarligi. Kutubxonachining faoliyat jarayonida tashqi koʻrinishning roli

**3-amaliy mashgʻulot. Kutubxonachining innovatsion faoliyati va kreativligi. (2 soat).**

“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Kreativlik sifatlari. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish shartlari. Shaxsda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladigan omillar. Shaxs kreativligini ifodalovchi belgilar. SHaxs kreativligini aniqlovchi psixologik testlar.

Pedagogning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialiga ega pedagogda namoyon bo'ladigan malakalar. Pedagogda kreativlik potentsialini rivojlantirish metodlari. Pedagog kreativ potentsialining tarkibiy asoslari. Pedagog kreativ potentsialini ifodalovchi tamoyillar. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. Pedagog kreativ potentsialining muhim darajalari.

#### **4- amaliy mashg'ulot: Kutubxonachining faoliyat jarayonini loyihalash va innovatsion ta'lim texnologiyalari (2 soat).**

Loyihaviy ta'limning asoslari. Loyiha va loyihalashtirish texnologiyalarining mohiyati. Kutubxonachining faoliyat jarayonini loyihalash bosqichlari va asosiy vazifalari. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari

#### **5- amaliy mashg'ulot: Interfaol ta'lim mohiyati va ularni amalda qo'llash (2 soat).**

“Interfaol, Interfaol ta'lim , Interfaollik tushunchalari. Interfaol metodlar turlari. Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati. Kutubxonachining faoliyat jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.

#### **Mustaqil ta'limni tashkil etish shakli va mazmuni**

Tinglovchilarning mustaqil ta'limi yakka tartibda dars mashg'ulotlarini loyihalash va innovatsion ta'lim texnologiyalari turli adabiyotlar va internet resurslaridan foydalangan holda ma'lumot to'plash, ularni o'rganish tahlil qilish hamda taqdimotlar tayyorlash asosida tashkil etiladi.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar interfaol metodlardan foydalangan holda seminar-trening shaklida o'tkaziladi. Tinglovchilar modulni o'rganish jarayonida ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, muammoli vaziyatlar bilan bog'liq masalalarni echish kabi topshiriqlarni bajaradilar.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun

dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim



oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

#### **“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



#### **“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi**

##### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. YUqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

##### **“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:**

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;

- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.


**“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

#### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta‘lim oluvchilar jalb etiladi;


- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“Davra suhbatı” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




**Belgilar:**

- 1-ta’lim oluvchilar
- 2-aylana stol

**Davra stolining tuzilmasi**

YOzma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. SHundan so‘ng konvertni soat

yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan taʼlim oluvchi oʻz javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi va yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbatlari” metodining tuzilmasi keltirilgan



### **“Davra suhbatlari” metodining tuzilmasi**

**“Davra suhbatlari” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashgʻulot mavzusi eʼlon qilinadi.
2. Taʼlim beruvchi taʼlim oluvchilarni mashgʻulotni oʻtkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir taʼlim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha taʼlim oluvchi boʻlsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoʻyiladi. Taʼlim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga oʻz ismi-sharifini yozadi.
4. Taʼlim oluvchi konvert ustiga mavzu boʻyicha oʻz savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi.
5. Konvertga savol yozgan taʼlim oluvchi konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari" dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari" ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

#### **"Davra suhbat" metodining afzalliklari:**

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

#### **"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:**


- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**"Rolli o'yin" metodi** - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. SHu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

### **“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:**

- o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta‘lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta‘lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

### **“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta‘lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta‘lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta‘lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta‘lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta‘lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta‘lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.





### **“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi**

#### **“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

#### **“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.


#### **“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:**

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va

oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar. Quyida "Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi**

#### **"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta‘lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

**“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta‘lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta‘lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta‘lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.


**“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:**

- ta‘lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta‘lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko‘p vaqt talab etiladi.

**“Loyiha” metodi** - bu ta‘lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta‘lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta‘lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta‘lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta‘lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



### “Loyiha” metodining bosqichlari

#### “Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning

birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta‘lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me‘yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me‘yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta‘lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta‘minlanishi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhliy ish;
- jamoa ishi.

## NAZARIY MASHG‘ULOTLARMAZMUNI

### **Mavzu: Pedagogik mahoratning nazariy asoslari va uning amaliy faoliyatdagi o‘rni**

#### **Reja:**

1. Pedagogik mahoratning nazariy asoslari
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
3. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.

Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim – tarbiya beruvchi mutaxassisni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. O'qituvchilik eng qadimiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining vujudga kelishi kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan yurish – turish, xatti – xarakterlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf – odatlarni, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish, yozuv ixtiro qilingach o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bogliq.

Odamlarning to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni xayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash extiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo buldi. SHu sababli, ko'p oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib oqitganlar. YOshlarga ta'lim – tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagog, professor deb, bolalarni to'plab oqitiladigan joyni – maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. SHarq mamlakatlarida, jumladan, Vavil'on, Misrda, Isroil shaxarlarida birinchi maktablar ochilgan. Maktab ochishni Misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar.

Qadimgi inson tarbiyasiga oid bo'lgan fikrlar xalq maqollarida, afsonalarida, dostonlarida o'z ifodasini topgan. Unda rostgo'ylik, ota – onaga xurmat – extirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. «Alpomish», «Tumaris» kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari uluglanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari xamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band etib kelgan. Bu zotlar, o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash xaqidagi yorqin muloxazalari bilan pedagogik fikr ravnaqiga ulush qo'shganlar.

Sharq mamlakatlaridagi maktablarda xat – savod o'rgatish murakkab, og'ir ish xisoblangan. Mutafakkirlar o'qitishning engilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Sharq mamlakatlarida qadimda yaratilgan ayrim qo'lyozma asarlarda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchi qanday bo'lishi haqida, shuningdek, ilm oluvchining ma'naviy qiyofasi, xislatlari tog'risida fikr – muloxazalar bayon etilgan, maslaxatlar berilgan.

«O'qituvchi kasbining nozikligi, mas'uliyatliligi va murakkabliligi hamda sharafliligi ekanligi tugrisida muloxazalar, muallimning maxorati, ularga

qo'yiladigan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirishish maxorati, muomala madaniyati SHarq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan. SHarq ma'naviy madaniyatining xilma – xil jixatlari, ayniqsa uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, al – Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abduraxmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma'naviy – axloqiy kamolotida muxim manba' bo'lib xizmat qiladi.

SHarqning buyuk allomasi, qomusiy olim **Forobiy ( 873 – 950 )** muallimning ijtimoiy xayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari tug'risida ibratli goyalarni ilgari surgan. «Oqituvchi, deydi Forobiy, aql – farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmqochi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. SHu bilan birga o'z or – nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt chuqqisiga erishadi», deb ta'kidlaydi. Mutafakkir Forobiy o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlariga xolisona, odilona sharx berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. SHuning uchun mazkur sharxlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli muloxazalar xozirga qadar xam o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Mazkur muammo yuzasida muloxaza yuritgan atoqli olim **Abu Ali ibn Sino ( 980 – 1037 )** ning fikricha, «... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostguy va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim». Abu Ali ibn Sino muloxazasiga ko'ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, xurmat qilishi, ular bilan xushmuomalada bo'lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni uz vaqtida ragbatlantirish, goxida maqtab ko'yish, aksincha bulganda esa, unga tanbex berish kerak. Lekin, deydi Ibn Sino, tanbex bolaning izzat – nafsiga tegadigan bo'lmasligi lozim, o'quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o'zboshimcha bo'lib qolishiga olib boradi, - deydi Ibn Sino.

**Nasriddin Tusiy** o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» degan asarida shunday deydi : «O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'griliga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaxarxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchi o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Etuk mutafakkir **Abduraxmon Jomiy** o'z asarlarida bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baxo beradi. Uning fikricha muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam xech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,  
Nodonlikdan qora bulurdi jaxon.

deb xitob qiladi u «Iskandar xirodnomasi» asarida.

O'zbek adabiyotining daxosi *Alisher Navoiy* o'z asarlari va ilmiy qarashlarida o'qituvchilik qobiliyati va uning obro'si, odobi yuzasidan alfozli muloxazalar yuritadi. Alloma ijodiy yondoshuvsiz hech bir faoliyatni tasavvur qila olmaydi. Ana shu boisdan uning asarlarida odob, axloq, ziyraklik, irodaviy kuch, poklik, samimiylik xislatlari asosiy o'rinni egallaydi.

O'qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo'lishlari ta'lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan. O'qituvchining kasb maxoratini tarbiyalashning moxiyati to'g'risidagi muloxazalar «Qobusnoma», «Xotamnoma», «Qutadg'u bilig» kabi buyuk asarlarda xam bayon etib berilgan. Chunki bu asarlarning barchasi odobnomaning xuddi o'zginasi bulganligi sababli tarbiyachi – murabbiyning uziga xos xislatlarining shakllanish bosqichlari ifodalab berilgan.

XVII – XIX asrda davom etgan Turkistondagi jadidlar xarakatining asoschilaridan biri, buyuk ma'rifatparvar o'qituvchi, moxir tadqiqotchi *Abdulla Avloniy* ta'lim tizimi, o'qitishni takomillashtirib, o'qituvchilar malakasini oshirish, bulg'usi o'qituvchini tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakli, uslub xamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muxim sifatlaridan biridir, deb ta'kidlaydi.

SHunday qilib, O'rta Osiyo mutafakkirlari va uzbek ma'rifatparvarlari o'qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql – zakovatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida jonbozlik, qat'iyatlik ko'rsatish kerakligini ta'kidlaganlar. O'qituvchilarning ruxiy dunyosiga to'g'ri yo'l topa olish, ularga ta'sir o'tkazish imkoniyati, vijdonlilik, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur ekanligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tadilar. (dots. G.Sultonova. «Pedagogik maxorat», ma'ruzalar matni, Toshkent, 2001y).

Insoniyat tomonidan minglab kasb-hunar bajarib kelinadi. Har bir kasb yuqori saviyada bajarilishi, kasb mahoratining talablariga javob berishi kerak.

Pedagogik mahorat deganda pedagogik faoliyat yuritishda murabbiyning qobiliyatlarini oliy darajada namoyon etishi, butun borlig'ini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish tushiniladi.

Pedagogik mahorat uzoq vaqt davomida o'qish-o'rganish, mashq qilish, tajribalar asosida hosil qilinadi. Pedagogik mahoratning boshqa kasb mahoratlaridan farqi shundaki, u bir qancha qirralarga bo'linadi.


Xulosa kilib aytganda, pedagogik mahorat - yuksak darajada pedagogik faoliyat yuritishga o'zini yo'naltira bilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir.

Pedagogik mahoratni quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi:

- insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi;




- kasb bilimdonligi;
- pedagogik qobiliyatlar (didaktik, tashkilotchilik, perseptiv, sugestiv, akademik);
- pedagogik texnika.



### ***1. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi - g'oyalari, qiziqishi, qadriy yo'nalishlari.***

Har bir o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'nalishi turlicha, ko'p qirrali. Uning qadriy yo'nalishini: 1) o'z-o'zida bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishga; 2) pedagogik ta'sir etish vositalariga (o'quv material va hakoza); 3) o'quvchiga, bolalar jamoasiga; 4) pedagogik **faoliyat** maqsadiga - faoliyat ob'ekti, vositalarini - o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, ya'ni gumanistik strategiya.



## **2. Kasbiy bilimdonlik.**

Pedagogik mahoratning asosiy poydevori - kasbiy bilimlardir. O'qituvchining bilimlari, bir tomondan, o'zi o'qitadigan predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmuni o'zi o'qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi.

Pedagogning mahorati - bilimlarni "insoniylashtirish" dadir, ularni auditoriyaga oddiy kitobdangina emas, balki o'zining dunyoqarashi sifatida bayon etadi.

Pedagogning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakllanadi, uning harakatlari asosida yotuvchi prinsiplar va qoidalarga amal qilinadi.

## **3. Pedagogik qobiliyatlar.**

Bu psixologik jarayonda kechadigan xususiyat bo'lib, pedagogik faoliyat samarasiga ta'sir etadi. Pedagogik qobiliyatlarni bir qancha yirik olimlar (Gonobolin F.N., Kuzmina N.V., Krutetskii V.N. kabi) tadqiq etganlar.


Qayd etilgan mualliflarga suyangan holda shaxsning pedagogik faoliyatiga tegishli asosiy oltita qobiliyatini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Muloqot qila olish, bu o'z ishiga, kishilarga bo'lgan munosabat, xayrixohlik, yaxshilikni ravo ko'rish.
- 2) Idrok eta olish qobiliyati - kasbiy hushyorlik, sezgirlik, pedagogik zehn.
- 3) Shaxs jo'shqinligi - irodaviy ta'sir ko'rsata olish va mantiqan ishontira olish qobiliyati.
- 4) Hissiy turg'unlik - o'zini qo'lga olish qobiliyati.
- 5) Optimistik faraz, baholash qobiliyati.
- 6) Ijodiy qobiliyat.

#### 4. *Pedagogik texnika*

Bu pedagogik mahoratning to'rtinchi tarkibiy qismi - o'qituvchi xatti-harakatini tashkil etish shakli. Faqat bilish, yo'nalish va qobiliyatlargina ko'nikmalarsiz yaxshi natijalar garovi emas.

Pedagogik texnika o'z ichiga ikki guruhdagi ko'nikmalarni oladi: o'z-o'zini boshkara olish ko'nikmalari va pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida o'zaro ta'sir etish ko'nikmalari. Birinchi guruh. ko'nikmalari - bu o'z tanasi, hissiy holati, nutq texnikasini boshqarishiga qaratilgan. Ikkinchisi – didaktik, tashkilotchilik ko'nikmalari, aloqali o'zaro ta'sir texnikasiga ega bo'lish. (bu haqda keyinchalik alohida to'xtaymiz).



Har qanday faoliyat kabi pedagogik faoliyat ham o'z ichiga o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiluvchi quyidagi komponentlar (tarkibiy qismlar) ni oladi: maqsad, vosita, ob'ekt, sub'ekt.

Eng avvalo pedagogik faoliyatning maqsadi o'ziga xos xususiyatga ega.

1. O'qituvchi ishining maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni o'qituvchi erkin holda o'z mehnatining natijasini tanlamaydi, uning harakatlari o'qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

2. O'qituvchining faoliyati har doim boshqalarni boshqarish faoliyatidir.

3. Boshqa kishi faoliyati (ta'lim-tarbiya)ni boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagogning maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagini ifodalaydi.

Pedagogik mehnatning ob'eketi -inson, shakllanayotgan shaxs ma'naviy dunyosining nozik tomonlari – aql, hissiyot, iroda, e'tiqod, o'z-o'zini anglash kabilar.

Sub'ekt - tarbiyalanuvchiga ta'sir etuvchilardir, ya'ni pedagog,ota-onalar, jamoa

tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy qurol - o'qituvchi shaxsi, uning bilim va ko'nikmalaridir.

Tarbiyaning asosiy vositalari - bu tarbiyalanuvchilar ishtirok etadigan har xil *faoliyat* turlaridir: mehnat, muloqot, o'yin, o'qish, badiiy - estetik va boshqa faoliyatlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari bu maqsad, sub'ekt, vositalardir. Pedagogning vazifasi bu elementlarni boshqarishdan iboratdir.

Pedagogik mahoratni shakllantirish mumkin. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida birinchi kunlardan kasb tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy o'rinni psixologik-pedagogik fanlar tizimi egallaydi (pedagogika nazariyasi va tarixi, yangi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, psixologiya). Mutaxassislik fanlar fundamental bilim berish bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchini dunyoqarashini, metodologik bilimlarini shakllantiradi.

Pedagogik mahorat amaliyot davrida yanada rivojlanadi va o'quvchilarda amaliy ko'nikma, malakalar tekshiriladi. Pedagogik mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bo'lajak o'qituvchini ijtimoiy - pedagogik faoliyati bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi.

SHuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta'lim muassasasi tayyor holdaga mahoratli pedagogni etkazib bera olmaydi. Mahoratga erishishning eng samarali va to'g'ri yo'li o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko'p, qolaversa o'qituvchilikning o'zi ijodiy soha hisoblanadi, izlanishni talab etadi.

### **3. O'quv jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.**

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri – nizo sanaladi.


**Nizo** – qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

**Pedagogik nizo** –pedagog va o'quvchi, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik.

Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lgan asosiy belgilar quyidagilardir:


Inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zo'riqish; noqulaylik, ichki yoki tashqi xavotir, bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir



Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir

Davomiyligiga ko'ra pedagogik nizolar bir necha turli bo'ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardir




### Pedagogic nizolarning asosiy turlari

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yo'l tutiladi. Ular orasida eng samarali yo'llar quyidagilar sanaladi:

1. Nizoning ta'sir doirasini kengaytirmaslik.
2. Qulay echimlarni taklif qilish.
3. Man etilgan usullarni qo'llamaslik, shakllardan foydalanmaslik.
4. SHikoyatlar sonini qisqartirish.
5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish.
6. Nizoga kirishgan sub'ektlar shaxsini kamsitadigan so'zlardan foydalanmaslik

Pedagoglar pedagogik nizo ishtirokchilariga pedagogik, pedagogik yordam ko'rsata olish imkoniyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Bu borada ko'rsatiladigan yordam turlari quyidagilar sanaladi



### Pedagogik yordam ko'rsata olish turlari

## 1-AMALIY MASHG‘ULOT. PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA UNGA XOS SIFATLAR.

### REJA:

1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.
2. Kasbiy kompetentlik sifatleri.
3. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

**Tayanch tushunchalar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik kasbiy kompetentlik, Individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash.

**1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.** Bozor munosabatlari sharoitida ehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Ingilizcha “**competence**” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma‘nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat

“Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. SHu sababli kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni,

muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

**2. Kasbiy kompetentlik sifatleri.** Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (1-rasm):



Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyati qisqacha yoritiladi.

**1. Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**2. Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

**1) psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, o‘quvchilar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**2) metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

**3) informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

**4) kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**5) innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

**6) kommunikativ kompetentlik** – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o‘quvchilar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

**3. shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.


**4. texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**5. ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova, va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.



O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi (2-rasm):



**2-rasm. Pedagogic kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari (A,K,Markova)**

**3. Pedagogning kasbiy kompetentligi.** O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi


Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda **o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari **o‘zini o‘zi tahlil qilish** va **o‘zini o‘zi baholash** orqali aniqlanadi.

**O‘z ustida ishlash** – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi

**O‘z ustida ishlash** quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular (3-rasm):



**3-rasm. Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichi**

### **Pedagogning mutaxassis sifatida:**

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash

yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (1-jadval):

**1-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli**

| <b>Bosqichlar</b> | <b>Ularda amalga oshiriladigan vazifalar</b> | <b>Qaydlar</b> |
|-------------------|--|----------------|
| 1-bosqich         |  |                |
| 2-bosqich         |  |                |
| 3-                |  |                |

|               |  |  |
|---------------|--|--|
| bosqich       |  |  |
| 4-<br>bosqich |  |  |
| 5-<br>bosqich |  |  |

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

**O'zini-o'zi tahlil qilish** yetakchi tomonidan tashkil etilayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatini o'rganilishidir

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

**O'zini o'zi baholash (O'O'B)** – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. **O'zini o'zi baholash** sub'ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'ektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi

**O'z-o'zini baholash** shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

**O'zini o'zi samarali baholash omillari:**

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. SHaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan o'z-o'zini baholash quyidagi formula

asosida aniqlanishi ko'rsatilgan:

$$\mathbf{O'O'B = yutuqlar / o'zini yuqori baholashga intilish}$$
$$\mathbf{(yoki O'O'B = YU / O'YUBI)}$$

Formulaga ko'ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o'zini o'zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o'ziga nisbatan qo'yayotgan talablarni pasaytirish ro'y beradi.

Bizning fikrimizcha, O'O'Bda xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo'l keladi:

$$\mathbf{O'O'B = yutuqlar / o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari}$$
$$\mathbf{(yoki O'O'B = YU / O'O'RV)}$$

Ushbu formula bilan ishlashda pedagog quyidagi o'zini-o'zi baholash modeliga tayanib ish ko'rishi mumkin (2-jadval):

### 2-jadval. O'zini-o'zi baholash modeli

|  | Mavjud yutuqlar | O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari |
|--|-----------------|--------------------------------------|
|  |                 |                                      |
|  |                 |                                      |
|  |                 |                                      |
|  |                 |                                      |

Ushbu model asosida o'z-o'zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o'z-o'zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko'p (1 dan katta) bo'lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari o'zaro (1 ga) teng bo'lsa, u holda u o'zida o'rta darajadagi kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo'lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishini talab qiladi.

Formulada "o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari" jumlasini qo'llanilgan ekan, eng avvalo, o'zini o'zi rivojlantirish nima ekanligini tushunib olish lozim.

**O'zini-o'zi rivojlantirish dasturi** – shaxsning o'zida kasbiy tajriba , malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatni tashkil etishi

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytiladi.

**Individual rivojlantirish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqqan shaxsiy amaliy xarakterdagi dasturi

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqqan olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur.

**Pedagogning individual rivojlantirish dasturi** – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy amaliy xarakterdagi dasturi

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;
- 3) mutaxassislik bilimlari;
- 4) didaktik malakalar;
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega Xususiyatlari va shaxsiy sifatleri;
- 7) o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Quyidagi pedagogning “Individual rivojlantirish dasturi”ning namunasi keltiriladi (3-jadval):

### 3-jadval. Individual rivojlantirish dasturi

| Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar  | Mavjud daraja | Istiqbol vazifalar |
|--|---------------|--------------------|
| Pedagogik bilimlar   |               |                    |
| Psixologik bilimlar  |               |                    |
| Mutaxassislik bilimlari  |               |                    |
| Didaktik malakalar:<br>bilishga oid (gnostik) loyihalash<br>ijodiy-amaliy (konstruktiv)<br>tadqiqotchilik<br>muloqotga kiruvchanlik<br>(kommunikativ) tashkilotchilik<br>izchillikni ta'minlovchi (protsesssual)<br>texnik-texnologik malakalar  |               |                    |
| Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari:<br>bilishga oid (gnostik)<br>loyihalash malakalari<br>ijodiy-amaliy (konstruktiv)<br>tadqiqotchilik<br>muloqotga kiruvchanlik<br>(kommunikativ)<br>tashkilotchilik<br>izchillikni ta'minlovchi (protsesssual)<br>texnik-texnologik malakalar |               |                    |
| Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar:<br>pedagogik fikrlash<br>tizimlilik<br>moslashuvchanlik<br>mobillik<br>ijodkorlik<br>hozirjavoblik<br>hissiy rivojlanganlik   |               |                    |

|  |  |  |
|--|--|--|
| pedagogik refleksiya                         |  |  |
| O‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari         |  |  |
| O‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar |  |  |

Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini yana quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin (11-jadval).

SHunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlarni aks etadi.

#### 4-jadval. Kasbiy rivojlanish shkalasi

|                                 | Kasbiy kompetentlik sifatlari  | SHkala ko‘rsatkichlari |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
|---------------------------------|--|------------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
|                                 |  | 10                     | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 |
| <b>1. Ijtimoiy kompetentlik</b> |  |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| )                               | ijtimoiy tashkilotlar va sub’ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish ko‘nikma, malakalariga egalik |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| )                               | kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik                                       |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| <b>2. SHaxsiy kompetentlik</b>  |  |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| )                               | doimiy ravishda kasbiy o‘shishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish                            |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
|                                 | kasbiy faoliyatda  |                        |   |   |   |   |   |   |   |   |   |

|                                   |   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|-----------------------------------|---|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| )                                 | o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| <b>3. Maxsus kompetentlik</b>     |   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| <b>4. Texnologik kompetentlik</b> |   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| <b>5. Ekstremal kompetentlik</b>  |   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| )                                 | favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |



|   |   |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|---|---|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| ) | muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|---|---|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovlarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

#### Nazorat uchun savollar:

1. "Kompetentlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Kasbiy kompetentlik nima?
3. Kompetentlik qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
4. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
5. Ijtimoiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
6. Maxsus kompetentlik negizida qanday kompetentliklar ko'zga tashlanadi?
7. Psixologik kompetentlikning mohiyati nimadan iborat?
8. Metodik kompetentlikda qanday jihatlar aks etadi?
9. "Informatsion kompetentlik" deganda nimani tushunasiz?
10. Kreativ kompetentlik nima?
11. Innovatsion kompetentlikning o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinadi?
12. Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik qanday ahamiyat kasb etadi?
13. "SHaxsiy kompetentlik" tushunchasi Siz uchun qanday ma'noni anglatadi?
14. Pedagogik kompetentlik nima?
15. A.K.Markova pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslarini qanday ifodalagan?
16. B.Nazarovning yondashuviga ko'ra pedagogik kompetentlik qanday asoslardan tarkib topadi?
17. Individual rivojlanish dasturi nima?
18. Pedagogning individual rivojlanish dasturida nimalar aks etadi?

19. O‘z-o‘zini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
20. O‘z ustida ishlash nima?
21. Pedagogning o‘z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?
22. Pedagogning o‘z ustida ishlashi qanday bosqichlarda kechadi?
23. O‘zini o‘zi tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
24. “O‘z-o‘zini baholash” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
25. SHaxsning o‘z-o‘zini baholashi qanday omillar negizida kechadi?
26. O‘z-o‘zini baholash qanday formula yordamida ifodalanadi?
27. O‘zini-o‘zi baholash modelida qanday holatlar aks etadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

## **2- AMALIYMASHG‘ULOT. ZAMONAVIY PEDAGOG IMIJI**

### **REJA:**

1. Imij tushunchasining mohiyati
2. Zamonaviy pedagog imiji.

**Tayanch tushunchalar:** mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik deontologiya, pedagogning kommunikativ kompetentligi, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik nazokat (takt), nizo, pedagogik nizo, pedagogik nizo turlari, pedagogik nizolarni hal qilish yo‘llari.

Bugungi kunda “imij” tushunchasi ishlab chiqarish, savdo va o‘zaro munosabatlar jarayonida faol qo‘llanilmoqda.

Lug‘aviy jihatdan **“imij”** (ing. *“image”*) tushunchasi “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” ma’nosini bildirsa, mazmunan “joziba”, “maftunkorlik” ma’nosini anglatishga xizmat qiladi

O'qituvchilarning imiji ularning shaxsi to'g'risida atrofda qilargalarga "ma'lumot" berib qolmay, balki o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri sanaladi.

**Pedagogik imij** – pedagog ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan uning tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblikni

### **Pedagog madaniyati va imiji**

Imij bir marotabali muvaffaqiyat bo'lmasligi kerak. U davomli natija va samara berishi lozim.

**Imijeologiya** – insonning shaxsiy maftunkorligini yaratuvchi fan va san'atdir.

**Imijeologiya** – bu ta'sir o'tkazish texnologiyalari majmuasi.

**Blez Paskal:** insonlarga ta'sir qilishning ikki usuli mavjud:

1) —ishontirish usulil , 2) —eqish usulil samaraliroqdir, negaki insonga eqmay turib uni ishontirish qiyin.

**Gyustav Lebon:** maftunkorlik eng kuchli qurol, usiz ma'budlar, shohlar va aellar boshqaruv tizimini o'z qo'llarida saqlay olmas edilar.

#### **Imijning vazifalari:**

- inson haet tarzini o'rgartiradi, faol yashash, o'z ustida ishlash va malakasini oshirishga rag'batlantiradi;
- shaxsiy ko'tarinkilikni, o'ziga ishonch va optimizmni yaratadi;
- insonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi, nizo va ziddiyatlar bartaraf qilinadi;
- psixoterapevtik vazifani amalga oshiradi.

*Imijning asosiy vazifasi - boshqa insonlarning tilaklariga javob berishdir!*

#### **Imij kim uchun kerak?**

- omma e'tiborida bo'lish, hurmatga va diqqatga sazovor bo'lishni xohlaysizmi?
- o'z ma'lumoti va bilimingizni ko'rsatishni, ma'lum mavqega ega bo'lishni, o'z atrofingizdagilarga ta'sir o'tkazishni istaysizmi?
- o'z manfaatlaringizni ilgari surishni, targ'ib qilishni, shuningdek o'z manfaatlaringiz atrofida odamlarni birlashtirishni istaysizmi?
- o'z atrofingizda zarar qilmaydigan aurani, ya'ni makonni shakllantirishni, o'z maslakdoshlaringizga ega bo'lishni xohlaysizmi?

**“Ha” deb javob bergan barcha insonlarga zarur!**

### **Imij nimada namoyon bo'ladi:**

- tashqi ko'rinish;
- kiyinish madaniyati;
- urf va odatlar;
- faoliyat va sayi-harakatlar;
- inson ahloqi;
- o'zini tutishi;
- maqsadlari;
- xarakteri;
- do'stlari va munosabatlari.

Pedagog ham shaxsiy xususiyatlarga, ham kasbiy mahoratga ega shaxs. SHaxs jihatidan kompetensiyaga ega pedagog, professionallik jihatidan muvaffaqiyatga tez erishadi.

### ***Pedagogning kasbiy imiji uchun zarur bo'lgan xususiyatlar:***

- o'quvchilar bilan ishlashda ishchanlik qobiliyati;
- ish faoliyati mobaynida o'quvchilarga namuna bo'lish nuqtai nazaridan o'zini ko'rsatishga moyillik va qo'rqmaslik;
- har qanday konflikt vaziyatlarni echimga olib kela olish;
- oila, mahalla va ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan hamma bilan hamkorlik o'rnatish olish;
- o'quvchilar bilan va hamkasblar bilan aloqaga kirishuvchanlik, ya'ni keng ma'noda muomala qila olish qobiliyati;
- o'quvchilar, hamkasblar va boshqalarga nisbatan mehrlilik, ochiq, samimiy, to'g'ri, teng, mulozamatli muomala qila olish;
- o'quvchilarni ishontira olish, o'zining ortidan torta olish, o'zgalarga ta'sir o'tkaza olish;
- o'quvchilar bilan ishlashda har qanday sharoitlarga tez moslasha olish, odamlarga va sharoitlarga nisbatan moslashuvchanlik;
- optimizm, o'z maqsadlarining to'g'riligiga komil ishonch;
- kiyinish madaniyatiga rioya qilish va o'quvchilarga o'rnak bo'la olish;

**Kiyimning vazifasi** – bu nafaqat insonni issiqdan, sovuqdan himoya qilish, balki o'ziga jalb etishni ham uddalashi kerak. Kiyimga qarab insonga baho beriladi albatta, ozoda, yarashgan va sipo kiyim kishining ishiga talabchanligi va ichki kamtarligi haqida ma'lumot beradi.

### **Donolar fikri:**

- inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir (**V.Gyugo**);

- inson chehrasi uning tiliga nisbatan ko'p va qiziqroq narsalarni aytib berishi mumkin: til faqat inson fikrlarini ba'en etsa, chehra fikr mohiyatini ko'rsatadi (**A.SHopengauer**);
- ichki go'zallik bilan yo'g'rilmagan hech qanday tashqi husn mukammal bo'la olmaydi (**V.G.Belinskiy**);
- kishilarga ta'sir etmoq uchun ularni avvalambor sevish kerak (**I.Pestalotssi**).

**N.Makiavelli** ilgari surgan fikrga ko'ra, davlat xizmatidagi shaxs mansabi va lavozimiga muvofiq o'z qiëfasini qayta yaratishi shart.

Mutaxassislar birlamchi imijning ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydilar. Bu siësatçining tashqi ko'rinishi, kiyimi, mimika, pantomimikasi, jestikulyasiyasi, nutqi, diksiyasi, ovoz tembri. Negaki, notiq beraëtgan axborotning 45%ni nutqi orqali ifodalasa, qolgan 65%ni noverbal vositalar orqali namoën etadi.

**Djon Meydjor.** Britaniyalik premer ministr avvaliga aholi uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishini istab imijmeykerlar xizmatini rad etadi. Natijada, uning birinchi ma'ruzasidan so'ng gazetalar premer ministrning nima haqida gapirganini emas, qanday ko'rinishga ega bo'lganini munozara qilishadi. SHundan so'ng, Djon Meydjor o'z fikridan qaytadi.

**Toni Bler.** Britaniyaning eng èsh premer ministri imiji konservativ va qat'iy an'analarga asoslangan qirollik mamlakatining tashqi imijiga o'zgartirish kiritdi. Tonining rok guruhda gitara chalishi, norasmiy vaziyatda djinsi va krossovka kiyib yurishi jamoatchilikning èsh qatlamiga juda èqqan.

***Ijobiy imij omad garovi, barqarorlik va ishonch timsolidir.***

Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali o'quvlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste'dodining o'zi etarli emas, balki o'quvchilarga yoqa olishni ham bilishi kerak.

**Pedagog imiji** - uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblikdir.

—O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasida 4 ta asosiy texnologik jihatlar mavjud:

- 1.Qiyofa vizualizatsiyasi (tashqi qiyofa)
- 2.Kommunikativlik (muloqot qilish)
- 3.Verbal effekt (notiqlik).
- 4.Flyuid nurlanish (tashqi emotsiya).

***Qiyofa vizualizatsiyasi*** quyidagilarda namoën bo'ladi:

- kinetika: tana nafisligi, hatti-harakat va holat elegantligi, ishora san'ati.
- kiyinish usuli: erkak va aëllar uchun zamonaviy moda olami tendensiyalari

asosida klassik uslubda kiyinib yurish, aksessuarlar samaraligi.

•feysbilding: yuz gigienasi, makiyaj, sochlarni parvarishlash va mos soch turmagini tanlash.

**Kommunikativlik** deganda, o‘zaro to‘g‘ri muloqot qilish qoidalariga rioya qilish nazarda tutiladi, ya’ni suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, shaxsiy jozibadorlikdan foydalash, suhbatdoshga èlg‘on mulozamat qilmaslik, haqiqatni noto‘g‘ri talqin qilmaslik va h.k.

**Verbal effekt** esa quyidagilarda namoèn bo‘ladi:

- oèqlarning yig‘ilgan holatda turishi;
- qo‘llarning me’èrida harakatlanishi;
- ovoz tembrining juda yuqori emasligi èki aksincha yuqoriligi;
- ifodali nutqni rivojlantirish;
- mazmunli nutq .

**Flyuid nurlanish** (tashqi emotsiya) birinchi taassurot, tanishuvning birinchi soniyalarida namoyon bo‘ladi:

- yoqimli tashqi ko‘rinish;
- go‘zal xulq-atvor;
- ifodali va nafis nutq;
- bilim;
- xarizmatik ta’sir;
- hurmatni namoyish etish.

Demak, pedagoglar shaxsiy-kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish bo‘yicha bilimlarini boyitadi ish jaraènida o‘quvchilar bilan olib boriladigan barcha ishlarida pedagoglik mahoratni egallashga intilishni kuchaytiradi, o‘z kasbiga qiziqish va burch, hamda mas’uliyatni his qilishni rivojlantiradi. Bu malakalar èshlarni tarbiyalash, tashkil qilish, targ‘ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga èrdam beradi.

### **Nazorat savollari**

1. Pedagog kompetensiyasi haqida ma’lumot bering.
2. Kompetensiya turlarini aytib bering
3. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha èritib bering.
4. Imij deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogning imiji qanday bo‘lishi kerak?

### **3- amaliymashg‘ulot. O‘qituvchining innovatsion faoliyati va kreativligi**

#### **Reja:**

1. Innovatsiya va pedagogic innovatsiyalar

2. Pedagogda innovatsiyon faoliyatni qaror toptirish  
3. pedagogning kreativligini rivojlantirish

Lugʻaviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan maʼnoni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

**Innovatsiya** – muayyan tizimning ichki tuzilishini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat

“Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi”da koʻrsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovations” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni taʼminlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablagʻlar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilgʻor tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyat doiralarida qoʻllanishi”<sup>1</sup>.

A.I. Prigojinning fikriga koʻra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turgʻun elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu oʻrinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida oʻziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog e. Rodgers oʻz tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka boʻlgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga boʻlgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari oʻrtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini oʻrgangan.


**Innovatsion taʼlim** (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – taʼlim oluvchida yangi gʻoya, meʼyor, qoidalarni yaratish, oʻzga shaxslar tomonidan yaratilgan ilgʻor gʻoyalarni, meʼyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan taʼlim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular (4-rasm):



### Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;



Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (2-jadval):

## 2-jadval. Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

| Asosiy farqlar   |  |
|--|--|
| Novatsiya  | Innovatsiya  |
| 1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;<br>2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;<br>3) metodlar yangilanadi;<br>4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi | 1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;<br>2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;<br>3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi;<br>4) yangi texnologiyalar yaratiladi;<br>5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;<br>6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi |

I.P.Podlasıyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi

**V. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.** Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.CHen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda

respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

SHartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar – A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. Esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o‘z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o‘rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo‘ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish (m: korxonada, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko‘lamda ishlab chiqish.

Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

**1. Gnostik-dinamik yondashuv** (unga ko‘ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg‘or pedagogik (ta‘limiy) innovatsiyalar va ularni o‘rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni izchil o‘zlashtiradilar, o‘z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo‘llash borasidagi tajribalarni o‘zlashtiradilar).

**2. Individual faoliyatli yondashuv** (bunda pedagoglar o‘zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliyotda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashda muayyan izchillikka erishadilar).

**3. Ko‘p sub‘ektki (dialogik) yondashuv** (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o‘zaro, xususan, ko‘p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta‘lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo‘llashga doir tavsiya hamda ko‘rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

**4. Insonparvarlik yondashuvi** (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo‘llashda ta‘lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

**5. Individual-ijodiy yondashuv** (unga ko‘ra har bir pedagog faoliyatini o‘rganilayotgan mavzu, o‘quv materialining mohiyati, shuningdek, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta‘lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat

Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.


M.Jumaniyozovaning e’tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi **belgilar** asosida namoyon bo‘ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;

V.Slasteninining fikriga ko‘ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo‘lishni ifodalaydi:

- faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o‘zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi. Ular (5-rasm):



### **Innovatsiyalarni asoslash bosqichlari**

R.N.YUsufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi

1. Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).


3. YAngilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tadbqiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi).

Bu o'rinda M.M.Potashnik tomonidan e'tirof etilgan innovatsiya jarayonlar mohiyatini ifodalovchi talqin alohida ahamiyatli ekanligini ko'rsatish o'tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur talqinga ko'ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega (6-rasm):



### Innovatsion jarayon tuzilmalari

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo‘ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to‘rtta qonuniyat xarakterli sanaladi (7-rasm):



### Pedagogik innovatsion jarayon qonuniyatlari

Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko‘ra pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar o‘zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik

baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi.


Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirish yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:

1 Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir (8-rasm):




### **Innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari**

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda



kechadi. Ya'ni (9-rasm):



### **Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari**

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatlari ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

**“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati.** Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida

shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

SHaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

So'nggi yillarda pedagog xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va o'quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavhani YOUTUBE saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham o'quvchilar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar o'quvchilarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab o'quvchilarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan o'quvchilar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi o'quvchilar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi o'quvchilar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o'quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida etishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi<sup>2</sup>.

SHaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va

erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; SHternberg, 1985 y.). SHarqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, YUe, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* o'quvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. YA'ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda o'quvchi echimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri echimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

**Kreativlik** (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi ijodkor) – individni yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassisleri kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim<sup>3</sup>.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik"<sup>4</sup> tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

<sup>3</sup> Ўша асар, 4-5-бетлар.

<sup>4</sup> Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.

- muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin<sup>5</sup>. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

**Pedagogik kreativlik** – pedagogning ananaviy pedagogic fikrlashidan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini Samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogic muommolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) o‘qituvchilarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar o‘quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun qo‘l keladi hamda o‘quvchilarda o‘quv fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi

Kreativ jihatdan rivojlanisha har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak:

**Kreativlikning rivojlanish davri** – ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi. **Kreativlikning rivojlanish bosqichi** – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi

SHunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatleri, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.


Pedagoglar kreativlik sifatleri bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur:

**Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:**

<sup>5</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar

Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi pedagoglarga ham kreativlik sifatleri o'z-o'zidan rivojlanmaydi. SHunga ko'ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlerini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi. Patti Drepeau<sup>6</sup> tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlerini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan



**Kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari**

Quyida mazkur yo‘llarning mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

**1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish.** Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e‘tibor markazida bo‘lib, o‘quvchilar fe‘llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o‘quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe‘llarning bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, o‘quvchilardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta‘riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda o‘quvchilarni fikrlashga undovchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa, noan‘anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: “*bog‘liqlikni toping*”, “*yarating*”, “*bashorat qiling*”, “*fikrni mantiqan bayon eting*”, “*tasavvur qiling*” kabi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog o‘quvchilardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflab berish”ni talab qilish o‘rniga, “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning barcha turlarini keltirish”ni so‘rashi lozim. Natijada o‘quvchilar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Pedagoglar birinchi yo‘lni qo‘llash – o‘quvchilarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh o‘qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

**2-yo‘l: amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish.** Pedagoglar o‘quvchilarda kreativ harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, o‘quvchilarga interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

**3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish.** Mazkur yo‘l o‘quvchilarni muammoni echish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “YUrak va qon aylanishi tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, o‘quvchilar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

**4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.** Bu yo‘lni tutishda pedagog o‘quvchilarga “Odamning qon aylanish tizimi” mavzusida Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi.

1-variant




2-variant



2. “Qishloqda bir kun” testi bo‘yicha tinglovchilarning tasavvur darajasini o‘rganish.

Surat bilan tanishib chiqing va beriladigan savollarga javob qaytaring.





1. Paraxod darayoda oqimga qarab harakatlanyaptimi yoki oqimga teskari tomongami?

2. Suratda yilning qaysi fasli tasvirlangan?

3. Bu erda daryoning o'zani chuqurmi yoki sayoz?

4. Paraxodlar to'xtash joyi bu erdan uzoqmi, yaqinmi?

5. Paraxodlar to'xtash joyi sohilning qaysi tomonida joylashgan?

6. Rassom suratda kunning qaysi vaqtini tasvirlagan?

Suratni diqqat bilan ko'zdan kechirib berilgan savollarga to'g'ri javob qaytarish mumkin bo'lgan belgilarni toping. Barcha ob'ektlar o'rtasida o'zaro bog'liq bo'lgan 9 ta belgi (aloqa)ni toping. O'z mulohazalaringizni daftarga yozing.

Tinglovchilar har bir to'g'ri javob uchun 2 ballni qo'lga kiritadi. Suhbat yakunida barcha ballar jamlanadi.

Agar Siz 6 ta savolning barchasiga to'g'ri javob qaytarib, ob'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqador 9 ta belgi (aloqa)ni topgan bo'lgangiz, u holda Sizning tasavvur darajangiz yuqori, agarda 3-4 belgi (aloqa)ni topgan bo'lsangiz, tasavvur darajangiz o'rtacha, bordi-yu, 1-2 ta belgi (aloqa)ni topgan bo'lsangiz, demak, Sizning tasavvur darajangiz past.

### **3. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish.**

#### **1. Ob'ektni shakllantirishga oid topshiriq**

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy 3-4 ta predmetni oling. Ular asosida imkon qadar ko'proq "hodisa"lar haqida hikoya (xabar) qiling. Hikoya (xabar)ingiz imkon qadar badiiylik kasb etsin!

**Misol uchun:** devor, velosiped, osmon.

**Hodisa:** "Bola uy yo'lagining devoriga suyab qo'yilgan velosipedni etaklab, deraza oldiga keldi va osmonga qaradi" (jumlada ifoda etilgan hodisa shunchaki xabar. Hodisaning mohiyati ijodiy xarakter kasb etishi uchun badiiy ibora va o'xshatishlardan foydalanish zarur.

#### **2. Ob'ektlarning umumiy belgilarini topishga oid topshiriq**

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta ob'ektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o'zaro o'xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling. O'xshash jihat (belgi)larni ot yordamida ifodalang. O'zaro o'xshash o'xshash jihat (belgi)larning imkon qadar ko'proq bo'lishiga harakat qiling.

**Namuna**

| <b>Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan ob'ektlar</b> |                |
|--|----------------|
| <b>Tarbiyaviy tadbir</b>   | <b>Sayohat</b> |
|  |                |

#### **4. Ob'ektning muqobillari yoki unga zid bo'lgan ob'ektlarni topishga oid topshiriq**

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli bir ob'ektni oling. Ikki ustunli jadvalni

shakllantiring. Birinchi ustunga muqobili, ikkinchi ustunga esa doir zidi bo‘lgan ob’ektni qayd eting. Ularning xususiyatlarini tizimlashtiring.

**Namuna**


| Vertolyot |      |
|-----------|------|
| Samolyot  | Olov |
|           |      |

**5. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bo‘yicha ishlash**

Amerikalik psixolog e.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishlashga oid topshiriq.

Tinglovchilarning e’tiborlariga e.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to‘laqonli rasm (surat)ni ishlash topshirig‘i beriladi.

**E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi**



6. Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

Tinglovchilarning e’tiborlariga Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari havola etiladi va u bilan batafsil tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ko‘rsatmalar bilan tanishibgach, jamoada muhokama tashkil etiladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Devid Lyuis ko'rsatmalarining ahamiyatini Siz qanday baholaysiz?
2. SHaxsiy hayotingizda ko'rsatmalardan qaysilariga rioya etasiz?
3. SHaxsiy hayotingizda ko'rsatmalardan qaysilariga e'tibor qaratmagansiz?
4. Ko'rsatmalar bilan tanishish asosida shaxsan Siz qanday xulosalarga keldingiz.
5. Sizningcha, ko'rsatmalardan eng ahamiyatlisi qaysi?

### **Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari**

1. Bolalarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashing.
8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.
9. Kamchiliklarini ko'rsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.
10. Bolani kamsitmang va o'zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo'l qo'ymang.
11. Uni mustaqil fikrlashga o'rgating.
12. Bolani sevimli mashg'ulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring.
13. Uni turli voqealarni o'ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.
14. Bolani yoshlikdan o'qib-o'rganishga odatlantiring.
15. Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qarating.
16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
17. Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.
18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
19. Bolani har bir yutug'i uchun maqtang.
20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo'ling.
21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o'rgatib boring.
22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab toping.
23. Bolaga turli latta-puttalar bilan o'ynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.
24. Uni muammoni topish va uni hal qilishga rag'batlantiring.
25. Bolaga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odil bo'ling.
26. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.
27. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering.
28. Bolaga uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun yordam bering.

29. Bolaga uning uchun foydali bo'lgan teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko'maklashing.
30. Uni o'z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.
31. Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
32. Bolaning o'ziga va uning sog'lom fikrga egaligiga ishonning.
33. Bolaga "Men ham buni bilmayman" deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee'tibor bo'lishga o'rgatmang.
34. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga etkazishi uchun imkoniyat yarating.
35. Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.



#### 4- AMALIYMASHG‘ULOT. TA‘LIM JARAYONINI LOYIHALASH VA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI REJA:

- 1.Loyihaviy ta‘limning asoslari
- 2.Loyiha va loyihalashtirish texnologiyalarining mohiyati
- 3.Ta‘lim texnologiyalarining mohiyati

Loyihaviy ta‘lim pedagogika amaliyotida qat‘iy yangi tushuncha emas, pedagogikada “o‘quv loyihasi” tushunchasi 300 yildan ortiq qo‘llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko‘ra, “*loyiha*” (*o‘quv loyihasi*. – K.X.,L.G.) tushunchasining paydo bo‘lishi XVI asrga taalluqli bo‘lib, italiyalik me‘morlarning me‘morlikni fan deb e‘lon qilib, uni o‘quv fanlari darajasiga chiqargan holda o‘z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog‘liq. Rim san‘at akademiyasida (Academia di San Luca) asosiy fanlar bo‘yicha ma‘ruzalarga muhim element — “tanlov” qo‘shilgan edi. Eng yaxshi o‘quvchilarga cherkov, haykal, saroy eskizini tayyorlash topshirig‘i berilib, ular ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar olingan bilimlarni mustaqil va ijodiy qo‘llashni o‘rganganlar. 1702 yildan (o‘quv loyihalari) tanlovi o‘quv yilining doimiy tadbiriga aylandi. U tuzilishi jihatidan hal etilishi lozim bo‘lgan vazifa, uni bajarish muddati, natijalarni baholash uchun jyorini kiritgan holda, haqiqatda tanlovga to‘liq mos kelgan. Biroq tanlovga taqdim etilgan ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmaganligi munosabati bilan, ular “progetti”, ya‘ni “eskizlar”, “rejalar”, “loyihalar” deb nomlangan.

SHunday qilib, pedagogika nuqtai nazaridan “*loyiha*” Rim akademiyasida ilk bor uchraydi. Bundan loyihaviy ta‘limning uch yuz yildan ortiq asosiy mazmunga ega uch didaktik belgisi meros bo‘lib qolgan:

1. *O‘quvchilarni ko‘zda tutish*, u loyihani mustaqil va javobgarlik bilan amalga oshirish davomida bilim olishni anglatadi.

2. *Voqelikni ko‘zda tutish*, u voqelikka yaqin sharoitda amaliy vazifani ishlab chiqishda ifodalanadi.

3. *Mahsulotni ko‘zda tutish*, u rejalashtirilgan natijaga erishish uchun fanning turli sohalarida bilimlarni qo‘llashni ko‘zda tutadi.

XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo bo‘lishi natijasida o‘quv loyihasi dastlab Fransiya, so‘ngra Germaniya, Avstriya, SHveysariyadagi, XIX asr o‘rtalarida esa AQSHdagi texnika va sanoat oliy maktablarida tarqaldi.

Nemis tadqiqodchisi M.Knollning ta‘kidlashicha, o‘quv loyihasining evropadan Amerikaga arxitekturadan muhandislik ishiga o‘tishi tabiiyki, uning turi, asoslash va qo‘llash usuliga ta‘sir etdi. Mashinasozlik sohasi professori S. Robinson tahsil olayotganlardan nafaqat chizma taxtasida loyihalarni yaratish, balki ularni ustaxonalarda loyihalashtirilgan buyumni tayyorlash jarayonini bajarish orqali amalga oshirishni talab etardi. S. Robinson “amaliy muhandislarni” tayyorlashda loyiha ishining pedagog roli to‘g‘risidagi fikrni bayon etish, shuningdek uning ishlab chiqarish sinflari tajribasi bilan aloqasini hisobga olgan

holda, loyihalashni yoshlarning ijtimoiy rivojlanishiga imkon beruvchi “demokratik” ish deb atadi.

*Loyihalar usuli* “o‘qitish usuli” didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida “erkin tarbiya” g‘oyalari yuzaga keldi. Tahsil oluvchiga olamni shaxsiy tajribasida faol o‘rganish imkonini berish orqali unda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligiga ishonish bu turli-tuman yondashuvlarni birlashtiruvchi kuch bo‘ldi. Pragmatik pedagogika asoschisi amerikalik faylasuf va pedagog Dj. Dyui ta‘limga quyidagi yangicha insonparvarona yondashuvning asosiy konseptual qoidalarini ishlab chiqdi va asosladi:

- amaliy natija beruvchi ishgina haqiqiy va qimmatli hisoblanadi;
- bola ontogenezda atrof olamni bilishda insoniyat bosib o‘tgan yo‘lni takrorlaydi (induksiya usuli orqali xususiydan umumiyga);
- bilimlarni o‘zlashtirish – tabiiy, boshqarilmaydigan jarayon;
- bola ta‘limning faol sub‘ekti bo‘lgan holda, bilimlarga ehtiyoj yuzaga kelgandagina axborotni o‘zlashtirishi mumkin.

Dj. Dyui nazariyasiga ko‘ra, muvaffaqiyatli ta‘lim shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘quv materiallarining muammosi;
- bolaning bilish faolligi;
- ta‘limning bola hayotiy tajribasi bilan aloqasi;
- ta‘limni faoliyat (o‘yin, mehnat) sifatida tashkil etish.

Dj. Dyui ta‘limni tahsil oluvchiga hayotda aynan zarur bo‘ladigan bilimlarga qiziqishni anglagan holda, uning maqsadga muvofiq faoliyati orqali faol asosda tashkil etishni taklif etgan.

V. Kilpatrik – dunyoga mashhur “Loyiha usuli” asari muallifi (1918 y.) zamonaviy “loyihaviy talim” tushunchasi uchun dolzarb mazkur ta‘lim usulining didaktik asoslarini shakllantirdi:

- V. Kilpatrikning fikriga binoan, ayni paytda umumiy manfaat asosida birlashgan bolalar guruhining yuqori darajadagi mustaqillik bilan “chin yurakdan” bajargan har qanday faoliyati loyiha hisoblanadi;
- maktab bolalarni hozircha namoyon bo‘lmagan, lekin kelajakda kutiladigan muammolar bilan to‘qnashuvga tayyorlashi kerak;
- loyihaviy ta‘lim muammoni hal etishga asoslanadi. Lekin u maqsad qo‘yilib, uni hal etishga intilish mavjudligida loyihaga aylanadi;
- o‘qituvchi ma‘ruzachi emas, balki maslahatchi vazifasini bajarishi: o‘quvchilarga ma‘lumotni qaerdan olishni aytish, olingan bilim va ko‘nikmalar kundalik hayotda qay tarzda asqotishini tushuntirishi kerak;
- loyihaviy faoliyat natijasida doimo muayyan mahsulot yaratilishi zarur.

U.X. Kilpatrik tahsil oluvchida loyihaviy faoliyatga maqsadga kuchli intilishni uyg‘otishning imkoni bo‘lmaganda, loyihalar usulini qo‘llashdagi cheklolarni ham ta‘kidlab o‘tadi.

SHu bilan birga ta‘kidlash lozimki, U. Kilpatrik “loyihalar usuli” tushunchasini asoslab, uni tahsil oluvchilarni ko‘zda tutish bilan cheklangan

ta'limot usuli sifatida ko'rib chiqqan. U. Kilpatrik loyihalar usuli bo'yicha faoliyat yurituvchi maktab dasturini belgilagan holda, ta'limning mazmuni va uni tashkil etishni qator o'zaro bog'liq shunday tajribalarni amalga oshirish bilan bog'laydiki, bir tajribadagi tahsil oluvchilar tomonidan olingan ma'lumotlar boshqa tajribalar oqimining boyitilishi va rivojlantirilishiga xizmat qiladi.

Loyihalar usulining amerikalik pedagoglar orasida ommalashuvi uning tushunchasi kengayishiga olib keldi. SHuday qilib, e.Kollings loyihalar usuli tavsiflarini to'ldirgan holda quyidagilarni ajratadi:

- ta'hsil oluvchilarning loyihani rejalashtirish, amalga oshirish va baholashdagi mustaqilligi;
- o'qituvchining vazifasi o'zgarishi;
- ta'limning muammoli va faoliyatli xarakteri;
- boshqa fanlar, maktabdan tashqari faoliyat bilan aloqa;
- mahsulotga qaratilgan natijaga erishish;
- amaliyot orqali tekshirish.

XX asr boshlarida Missuri shtatida e. Kollings maktabi bilan bir qatorda yangi-yangi tajriba maktablari ochila boshladi.

Dalton shahridagi elena Parkxest maktabida pedagogika faoliyati "uchta kit" asosiy prinsiplariga asoslangan bo'lib, quyidagilarda ifodalanadi:

- bolaning erkinligi;
- uning bollar guruhi bilan o'zaro munosabati;
- dars vaqtining qulay taqsimlanishi.

Deklaratsiyalangan va tahsil oluvchiga real tarzda taqdim etiladigan erkinlik shaxsiy ta'lim sur'atini tanlash imkoniyati orqali ta'minlanadi. Ikkinchi prinsipning ta'minlanishi turli yoshdagi guruhlarning o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Dars vaqtini taqsimlashda qat'iy nazoratning yo'qligi ruhiy bosimdan xalos etib, har bir o'quvchining sarflangan vaqt uchun javobgarligini oshiradi. Garchi bu maktabda asosiy va qo'shimchaga bo'linsa-da, hamma fanlarni o'rganishda loyihalar usuli qat'iy qo'llanildi.

Amerika tajriba maktablarida qo'llanilgan shakl va usullarning xilma-xilligidan qat'iy nazar, bir umumiylikni farqlash mumkin. Uning mohiyati shundaki, yaratuvchanlik faoliyati orqali asosiy deb olingan rivojlantirish ta'limi prinsiplari loyihaviy tafakkur asoslarining shakllanish g'oyalarini deyarli ortda qoldirdi. Bunday ijodiy izlanishlarning maqsadi va shiori – "har bir bolaga shaxsiy va umumiy moyilliklarini rivojlantirishda yordam berish", bu loyihaviy ta'limga yangicha yondashuvlarni belgiladi:

- ta'limning yo'naltirilishi va alohidalashuvi;
- loyihalar ustida guruh bo'lib ishlashdan foydalanish;
- tahsil oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini ta'minlash.

XX asrning 30-yillarida Amerika pedagogikasida U. Kilpatrik konsepsiyasining tanqidi keng tarqaldi. Hamkasblar quyidagilarni haqqoniy ta'kidladilar:

➤ loyihalar usuli gipertrofiyasi – unga ta'limning asosiy usuli nufuzini berish, bu o'quvchilarning nazariy bilimlari etarlicha shakllanmaganligini izohladi;



➤ o'qituvchining vazifasini maslahatga yo'naltirish.

Natijada bu ta'lim usuli Amerika maktablarida ba'zan qo'llanilib, keyinchalik undan texnika, tabiiy-ilmiy va qishloq xo'jaligi fanlarini o'rganishdagina foydalanildi.

Amerika pedagoglarining ishlanmalari bilan deyarli bir vaqtda Rossiyada loyihaviy ta'lim g'oyalari ishlab chiqildi. 1905 yilda bu erda S.T.SHatskiy boshchiligida darsni loyihalashtirishdan bilim va ko'nikmalar o'rtasida aloqa va ularning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlovchi vosita sifatida faol foydalanishga uringan xodimlar guruhi tuzildi.

V.X.Kilpatrikning "Loyihalar usuli. Maqsadli ko'rsatmani pedagogika jarayonida qo'llash" risolasi chop etilgach, loyihaviy ta'lim dastlab Rossiyadagi tajriba, so'ngra ba'zi ommaviy maktablarda keng tarqaldi (1925 g.).

Biroq sovet olimlari (V.N. SHulgin, M.V. Krupenina, B.V. Ignatev) loyihalar usulini ta'limning asosiy usuli sifatida ko'rib chiquvchi e. Kollinzning xatolarini hisobga olmadilar. SHu davrga xos ifodaning qat'iyiligi "Loyihalar usuli – ta'lim maktabini hayot maktabiga aylantirish" formulasida bayon etildi. Bu giperbollash (va ma'lum ma'noda - bachkanalash) natijasida majmuaviy-loyihaviy dasturlar ishlab chiqildi (1929-1930), ularda o'quv fanlari rad etilib, bilimlarni o'qituvchi boshchiligida muntazam o'zlashtirish esa "Savodsizlikni bartaraf etishga yordam beramiz", "Mas'uliyatsizlarni aniqlashga yordam beramiz" va hokazo loyiha topshiriqlarini bajarish bo'yicha tahsil oluvchilar bilan ishlash bilan almashtirildi.

Buning natijasida "o'quv reja va dasturlari siqib chiqarildi, o'qituvchining o'rni kamsitilib, o'quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirish tartibsiz va balandparvoz ma'lumotlarni to'plash bilan almashtirildi, maktab o'z mavqeini yo'qotdi".

Pedagogika tarixining hozirgi tadqiqodchilari ta'kidlaydilarki, o'tgan asrning 20-yillarida loyihalar usulidan foydalanish maktabda ta'lim sifatining haqiqatda yo'l qo'yib bo'lmas qulashiga olib keldi. Bu hodisaning sabablari orasida quyidagilar farqlanadi:

- loyihalar bilan ishlashga qodir pedagogika xodimlarining yo'qligi;
- loyiha ishi uslubiyatining sust ishlanganligi;
- "loyihalar usuli" gipertrofiyasining boshqa ta'lim usullariga zarari;
- "loyihalar usuli"ning pedagogika nuqtai nazaridan savodsiz "kompleks dasturlar" g'oyasi bilan mosligi.

SHu bilan birga, loyihaviy ta'limning afzalliklari jahon pedagoglar jamoatchiligi tomonidan baholandi. XX asr boshlarida loyiha usulidan Amerika ta'lim strategiyasi sifatida oqilona foydalanildi, rivojlantirildi.

## 1. Loyiha va loyihalashtirish texnologiyalarining mohiyati

**Loyiha** – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b.q ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

**Loyihalash metodi** - pedagogikaning pragmatik yoʻnalishiga asoslangan holda, taʼlim jarayonida oʻquvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni oʻquvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va koʻnikmalarni namoyon qilishlarini taʼminlovchi taʼlim shakli (Pedagogik atamalar lugʻati R.X.Djuraev, Oʻ.Q.Tolipov, R.Gʻ. Safarova, X.O. Toʻraqulov, M.E.Inoyatova, M.S.Divanova. Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti - 2008)

**Loyihalash** – boshlangʻich maʼlumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash “**gʻoya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish**” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, yaʼni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qogʻozi, chizgʻich, qalam, marker, nusxa koʻchirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- oʻquv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- oʻquvchi bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini

baholash kabi koʻnikma va malakalarga ega boʻlishi zarur.

**Taʼlim jarayonini loyihalash** – alohida olingan taʼlim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

## **2. Taʼlim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari:**

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida taʼlim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratiladi, chunonchi:

1) taʼlim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy taʼminot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan taʼminlanadi;

2) taʼlimning texnologik vositalari oʻquvchilarning individual xususiyatlariga bogʻliq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va oʻquvchi oʻrtasidagi) koʻlami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bogʻliq.

Uzluksiz taʼlim tizimining barcha turlarida taʼlim jarayonini loyihalashda bir qator tamoyillarga tayaniladi. Ayni oʻrinda dastlab tamoyil tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur.

Tamoyil (latincha principium-boshlangʻich asos)- muayyan nazariya, fan,

dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy tuzilma va hakazolarning asosiy boshlang'ich holati ma'nosini anglatadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari:

1. **Markazlashtirilgan tamoyil**
2. **Refleksiv tamoyil**
3. **Natijaviylik tamoyil**
4. **Ko'p omillik tamoyili**
5. **O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili**
6. **Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili**

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Dars turini tanlash.
6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

**Dars maqsadi va natijasini belgilash** – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular pedagog o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan o'quvchiga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchilar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. O'z mohiyatiga ko'ra darsning maqsadi o'qituvchi va o'quvchilarning umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini belgilaydi. SHu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. YA'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- 1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;
- 2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi

to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

SHunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

**Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish** – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Ta'lim resurslarini tanlash** – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, o'quvchi va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi.

**O'qitish va o'qish strategiyasi** – belgilangan o'quv materiallarini o'quvchilar ongiga etkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

**Darsning turini tanlash** – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

**Darsning texnologik xaritasi** – dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

### 3. Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari va asosiy vazifalari

Ta'lim jarayonini loyihalash: **loyiha – mazmun – faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Loyihani yaratish
2. O'quvchilar faoliyatini tashxislash
3. Pedagogik jarayonni tashkil etish
4. Pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash
5. O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan **asosiy vazifalar** quyidagilardir:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

**Dars ishlanmasi** – bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi

tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish **maqsadi** ko'zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars "jonli" tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

**Texnologik pasport** (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

#### **OTMdagi o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti**

| Ma'ruza mavzusi                      |                             |
|--------------------------------------|-----------------------------|
| Ma'ruzaga ajratilgan vaqt            | O'quvchilar soni            |
| O'quv mashg'ulotining shakli va turi |                             |
| O'quv mashg'ulotining tuzilishi      |                             |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi:        |                             |
| Pedagogik vazifalar:                 | O'quv faoliyati natijalari: |
| Ta'lim metodlari                     |                             |
| Ta'limni tashkil etish shakli        |                             |
| Didaktik vositalar                   |                             |
| Ta'limni tashkil etish sharoiti      |                             |
| Nazorat                              |                             |

**Texnologik xarita** (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.

#### **OTMdagi o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni |          |
|--------------------------|------------------|----------|
|                          | Pedagog          | O'quvchi |
|                          |                  |          |

|  |  |  |
|--|--|--|
| 1-bosqich. Boshlang'ich qism – o'quv mashg'ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa) |  |  |
| 2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)                           |  |  |
| 3-bosqich. YAkuniy qism (10 daqiqa)  |  |  |

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o'quv qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart–sharoitlarning mavjudligi, pedagog va o'quvchilar o'rtasida samimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

**1–bosqich.** Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularni mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish pedagog uchun o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini bera oladi.

**2–bosqich.** Ikkinchi bosqich o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'lim (band)lar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart–sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi.

**3–bosqich.** Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifalariga tayangan holda o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini

ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarining xajmi ham o'z ifodasini topa olishi kerak. Zero, ta'lim mazmuning g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma hamda malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

**4–bosqich.** Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi hisoblangan bu bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulotning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini taminlashga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining 90 foizlik samaradorligini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan ana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs – munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l–yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

**5–bosqich.** Navbatdagi bosqichda o'quvchilar tomonidan bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zlashtirilishi uchun etarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya'ni o'quvchilarda muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

**6–bosqich.** Bu bosqichda topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining samaradorligiga alohida e'tibor berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan echilishi lozim bo'lgan mashqlar;
- darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar (uy vazifalar).

O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir–birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyusion xususiyat kasb eta olishi lozim.

**7–bosqich.** Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning ettinchi bosqichida o'quvchilarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish

kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi o'quvchilarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir– birlari bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish zarurdir.

**8-bosqich.** Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasini o'rganish bilan nihoyalanaadi.

Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi Mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarni oldini olishga qaratilgan chora–tadbirlar belgilanaadi.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

**Texnologiya** (yunon. “techne” – mahorat, san'at, “logos” – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

**Ta'lim texnologiyasi** (ingl. “an educational technology”) – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

**Ta'lim texnologiyasi** – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish

**Ta'lim metodi** – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini echishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi **darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib**, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga



xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO).

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan maamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy evropa va AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta'lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta'lim) texnika(si)” tushunchasi “o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi” tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi pedagog omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash “ta'lim texnologiyasi” yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu

borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSHda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi:


**1-jadval. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish bosqichi**

|                            | <b>Bosqichlar</b> | <b>Yillar</b>         | <b>Ta'lim texnologiyasi-TT</b>   |
|----------------------------|-------------------|-----------------------|--|
| .                          | I-bosqich         | XX asrning 30-yillari | <b>TT= Ptex</b><br>O'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi (pedagogik texnika – Ptex)   |
| .                          | II-bosqich        | XX asrning 50-yillari | <b>TT=Ptex. + TV</b><br>Ta'lim jarayonida texnik vositalar (TV)ni qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, ularni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o'quvchi faoliyatini individuallashtirish  |
| .                          | III-bosqich       | XX asrning 60-yillari | <b>TT = Ptex. + TV + dasturiy ta'lim (DT)</b><br>Dasturiy ta'lim – ta'lim maqsadlarining aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhishlash, ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish |
| <b>TT = Ptex + TV + DT</b> |                   |                       |  |

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish

mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega (1-rasm):



### PTning umumiy didaktik tamoyillari

**1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili** ikki jihatni o'zida aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

**2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili** fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar soxalari bnyicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan

bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

**3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili** nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili o'quvchilarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi pedagog omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar "soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari" g'oyasi pedagog o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

**4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili.** Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi.

**Insonparvarlashtirish** ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, **insoniylashtirish** tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, **insonparvarlashtirish** – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, **insoniylashtirish** "barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun" degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog o'quvchilar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

**5. O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili.** Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta’lim muassasalarining har bir o‘qituvchisi o‘z fani sohasiga o‘quvchilarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o‘qituvchi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko‘radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya’ni, u ta’lim jarayonini tadqiq etadi.

O‘qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va o‘quvchilarni bo‘ljak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

**6. Ta’limning uzluksizligi tamoyili** ta’lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. SHaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo‘lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o‘n yil mobaynida o‘zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o‘qituvchining o‘z faoliyatida mustaqil ta’limni tashkil etishga e’tibor berishi, pedagog pedagogligini ta’minlagan ta’limdan o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

**7. Faoliyatli yondashuv tamoyili** nazariya va amaliyotning didaktik bog‘liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma’noda izohlanadi: a) ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar; b) ular tomonidan o‘zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbiqiga ega bo‘lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. Ular quyidagilardir:

- ta’lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o‘zida yaxlit as ettira olishi;
- o‘zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;
- g‘oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;
- o‘quv materialining zarur axborotlar bilan to‘liq ta’minlanganligi;
- o‘qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo‘llash imkoniyatini ta’minlanganligi;
- ta’limning ko‘rgazmaliligi ~~85~~ barcha uchun ochiqligini ta’minlash tamoyiliga egaligi;
- ko‘p funksiyali ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjulligi;

O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. SHu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin. Bunda quyidagi mezonlar muhim ahamiyatga ega:

**3. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotning muhim yo'nalishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish quyidagi shartlar asosida ta'minlandi.

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi.

## **5- AMALIYMASHG'ULOT INTERFAOL TA'LIM MOHIYATI VA ULARNI AMALDA QO'LLASH**

### **Reja:**

1. Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati.
2. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi.

**Tayanch tushunchalar:** interfaol, interfaollik, interfaol ta'lim interfaol ta'limga xos belgilar, interfaol ta'lim tamoyillari, interfaol ta'lim texnologiyalari (TT), interfaol metodlar, strategiya, grafik organayzer.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

**“Interfaol”** tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) tarzida

ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter” – o‘zaro, “act” – harakat qilmoq kabi ma‘nolarni anglatadi.

**Interfaol ta‘lim** – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim.

**Interfaollik** o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta‘lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:

Interfaol TT ta‘lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.


Interfaol TTni qo‘llashda suhbat quyidagi shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi:

Interfaol TT mohiyatiga ko‘ra suhbatning “o‘quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi.

O‘quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma‘lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi:

O‘qituvchi ta‘lim jarayonida interfaol TT yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol TTni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta‘limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Interfaol TTning asosiy belgilari quyidagilardir:



### Interfaol ta'limni tashkil etishning asosiy belgilari

**Izoh:** Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o‘z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash).

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:

**1. Interfaol metodlar:** “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b.

**2. Strategiyalar:** “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “YUmaloqlangan qor” va h.k.

**3. Grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.

**Interfaol ta'lim metodlari va ularni qo'llash tartibi.** Ayni o‘rinda bir guruh interfaol ta'lim metodlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash tartibi to'g'risida so'z yuritiladi.

#### “Aqliy hujum” strategiyasi

Strategiya talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o‘ziga xos) echimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Strategiya mavzu doirasida ma’lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil




g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Uni samarali qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



Mashgʻulotda strategiyani qoʻllashda quyidagilarga eʼtibor qaratish lozim:




### “Baliq skeleti” grafik organayzeri (GO)

GO talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qoʻllashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, maʼlumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish koʻnikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) oʻqituvchi oʻquvchi (talaba)larni GOni qoʻllash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) oʻquvchi (talaba)lar kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar oʻz echimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining echimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi


Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



## “Bilaman. bilishni xohlayman. bilib oldim” (BBB) GO

GO talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.


Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---------|--------------------|-------------|
|         |                    |             |
|         |                    |             |

GOdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:




Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti qo'yidagicha:

- 1) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- 2) talabalarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
- 3) talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) talabalarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- 5) talabalarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;
- 6) o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlardan talabalarni xabardor qiladi;
- 7) talabalar tomonidan o'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- 8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;
- 9) mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

## “Blits-so‘rov” metodi

“Blits-so‘rov” (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta‘lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, talabalarning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:




Metodni qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

## “Venn diagrammasi” GO

GO talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



GO talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma‘lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

GO ni qo‘llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni


bajaradi. Talabalarning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

| Guruhlar | Diagrammaning tartib raqami | Topshiriqlar mazmuni |
|----------|-----------------------------|----------------------|
| 1- guruh | 1-diagramma                 |                      |
|          | 2-diagramma                 |                      |
|          | 3-diagramma                 |                      |
| 2-guruh  | 1-diagramma                 |                      |
|          | 2-diagramma                 |                      |
|          | 3-diagramma                 |                      |
| 3-guruh  | 1-diagramma                 |                      |
|          | 2-diagramma                 |                      |
|          | 3-diagramma                 |                      |
| 4-guruh  | 1-diagramma                 |                      |
|          | 2-diagramma                 |                      |
|          | 3-diagramma                 |                      |

### “Debat” metodi

“Debat” (fr. “debattere” soʻzidan olingan boʻlib, “debats” – “bahslashmoq”) texnologiyasi yigʻilish, majlis yoki mashgʻulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar oʻrtasida oʻzaro bahs uyushtirish, ularning oʻzaro fikr almashishlarini taʼminlashga xizmat qiladi.

Oʻquv mashgʻulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:



### “Klaster” GO

“Klaster” (gʻuncha, toʻplam, bogʻlam) GO puxta oʻyangan strategiya boʻlib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda

qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

GOdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:


Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring!

YOzuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to‘xtamang! Agar ma‘lum muddat o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating!


GO yordamida talabalar topshiriq bo‘yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



“Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi

Strategiya tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalangan ma’lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Mashg‘ulotda strategiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




**Izoh:** o‘qituvchi mustaqil ishlashini ta’minlash uchun har bir talabaga mazmunini biroz o‘zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin..


### “Nilufar guli” texnologiyasi

Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylana)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

Talabalarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Talabalarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim etiladi:







## “Swot-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jhati tahlil qilinadi:



Mashg‘ulotlarda strategiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:



**Izoh:** strategiyani qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning bilimi darajasiga moslab, unga tushunarli so'zlar bilan ifodalashi (o'zgartirishi) mumkin. O'qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida etarlicha ma'lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

### “Sinkveyn” strategiyasi


J.Still, K.Meredit, Ch.Temil tomonidan ishlab chiqilgan “O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “Sinkveyn” strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o'rinda strategiyaning mohiyati bilan tanishib o'tish maqsadga muvofiqdir.


**Sinkveyn** (fr. “besh qator” ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (talaba) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

**Sinkveyn tuzish** – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:



Sinkveynlar quyidagi holatlarda samarali sanaladi:




### “Skarabey” strategiyasi

“Skarabey” (“Qo‘ng‘iz”) strategiyasi talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Talaba strategiyani qo‘llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko‘lamini aniqlash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Strategiya, shuningdek, turli g‘oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe‘llik, o‘zgarlar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish; o‘z-o‘zini baholash.

Strategiyadan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. YA’ni:




Mazkur strategiya talaba tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

### “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir

nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.


Ta'limda strategiyani qo'llash o'rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko'ra mashg'ulotlarda talabalar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



Strategiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

| Umumiy muammo    |            |                  |            |                  |            |
|------------------|------------|------------------|------------|------------------|------------|
| 1-qaror varianti |            | 2-qaror varianti |            | 3-qaror varianti |            |
| Afzalligi        | Kamchiligi | Afzalligi        | Kamchiligi | Afzalligi        | Kamchiligi |
|                  |            |                  |            |                  |            |
| <b>Qaror:</b>    |            |                  |            |                  |            |

Strategiya quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:



**Izoh:** 1. Muammo bo'yicha bildirilgan qarorlar yuzasidan savollar tug'lsa, ularga javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi.

2. Agarda barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

SHunday qilib, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Eng muhimi o'qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol metodlarni qo'llashda talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Interfaol", "interfaol ta'lim" va "interfaollik" qanday ma'noni anglatadi?
2. Interfaol ta'lim texnologiyalari o'zida qanday belgilarni ifoda etadi?
3. Interfaol metodlar qanday amaliy ahamiyatga ega?
4. SHaxsan Siz pedagogik faoliyatingizda qanday interfaol metodlardan foydalanasiz?

# Keyslar banki

### **1- Mikrokeys**

Dars jaraènida bir nechta bolalar o‘z mobil telefonlarida o‘yin o‘ynab o‘tirdilar. Buni ko‘rgan o‘qituvchi ular bilan darsni davom ettirishning imkoni yo‘qligini tushundi. Nima xam qilinaradi darsga ajratilgan vaqtdan kechishga to‘g‘ri keladi. SHunda o‘qituvchi o‘quvchilarga yuzlanib shunday deydi: —Xo‘sh xurmatli o‘quvchilar, sizlarga bu fan qiziq emasligini tushundim.

YAna kim shunday o‘ylaydi? Hozir sizlar bilan kelishib olsak, sizlarga bu fanni juda qiziqarli ekanligini isbotlasam siz boshqa darslardan chalg‘imaysizlar va kechga qolmasdan kelasizlar. Bu fan oliy ta‘limga topshirishda kerak bo‘lmasada uni o‘qishga sabab juda ko‘pl...

O‘qituvchining o‘quvchilarni qiziqtirishga tutadigan yo‘li...

### **2- mikrokeys**

O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirib bo‘lganidan so‘ng ularga shunday dedi, —Hurmatli o‘quvchilar endi yangi mavzuni mustahkamlash uchun sizlar bilan jadval tuzamiz, o‘quvchilarning javobi —Nima keragi bor, shundoq xam eslab qolamiz, kerakmi shu... va hokazo.

SHunda o‘qituvchi —YAxshi agar jadval tuzishni sitamasangiz unda eslatmalar tayèrlaymiz... o‘quvchilar —nima qilamiz bekorchi ishlarni bajarib, nimaga kerak endi bular... o‘qituvchi

Bunday vaziyatda nima deb o‘ylaysiz shqituvchi o‘quvchilarga èn bosishi yaxshimi èki yo‘qmi? Bu vaziyatdan qanday chiqish mumkin?

### **3 -mikrokeys**

CHet tili darsida o‘qituvchi o‘zining va kelmagan o‘qituvchining sinfiga qo‘shib dars o‘taètgan edi. O‘quvchilar o‘zlarini juda èmon tutardilar. Snfda barcha baland ovozda gapirar, to‘palon qilar edilar. Ayniqsa bir o‘quvchining ovozi barchanikidan baland chiqardi. O‘qituvchi mavzuni tushuntirib bo‘lganidan so‘ng to‘polon qilaètgan o‘quvchini o‘rnidan turg‘izib undan mavzuni takrorlab berishini so‘radi. O‘quvchi esa faqatgina birinchi qismini aytib berishi mumkinligini aytdi. O‘qituvchi agar mavzuni barchasini aytib bermasa 2 baho qo‘yishini aytdi. O‘quvchi esa qolgan qismini bilmasligini tushuntirdi. O‘qituvchi o‘quvchini joyiga o‘tqazib 2 baho qo‘ydi, o‘quvchi esa qolganini aytaman qo‘ymang dedi. Lekin o‘qituvchi uni boshqa tinglamadi.

Bu vaziyatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

### **4- mikrokeys.**

Darsdan so‘ng o‘qituvchining èniga Alisher ismli o‘quvchi keldi va sinfdoshi Umidaning telefon raqamini so‘radi. Alisher unga sinfdoshi Umida juda èqishini va maktabda u bilan gaplasha olmaètganini tushuntirdi. O‘qituvchi bu vaziyatda nima qilishini bilmay qoldi, chunki birinchidan o‘quvchining ishonchini so‘ndirib qo‘ymaslik kerak, ikkinchidan esa Umidaning raqamini berolmaydi,

chunki bu holat nima bilan yakunlanishini bilmaydi.

Siz bu vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

### **5- mikrokeys.**

Sinfda qolgan o‘quvchilardan jismoniy va psixologik rivojlanishi bilan farq qiladigan, ya’ni ortda qolgan o‘quvchi bor. Sinfdoshlari doimo bu o‘quvchini xaqorat qiladilar, ustidan kuladilar va masxara qiladilar. O‘qituvchi xam o‘quvchini savol berib o‘rnidan turg‘azganida u uyalib, ustidan kulishlaridan qo‘rqib gapira olmaydi. O‘qituvchi unga 2 baho qo‘yib o‘tqizib qo‘yadi.

Siz bu vaziyatda qanday ish tutgan bo‘lardingiz. O‘qituvchining bu yo‘li to‘g‘rimi?

**6- mikrokeys..** To‘qqizinchi sinf o‘quvchisi Karim bir kuni darsni tayyorlamay keldi. Muallima unga «ikki» baho qo‘ydi. Oilada Karim onasi bilan yashaydi, otasi boshqaga uylanib ketgan. Muallima Karimga «yomon» baho qo‘ygani etmagandek, unga zarda bilan: «Otang sizlarni bekorga tashlab ketmaganga o‘xshaydi, bunday boladan qochib qutulishdan boshqa chora yo‘q», - deb uni sinfdan chiqarib yubordi. Muallimning bu muomalasi o‘quvchini tahqirlash bilan birga sinfdagi boshqa o‘quvchilarning ham noroziligiga, nizo kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Talabchanlik o‘qituvchi odobining normalaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining bolaga qo‘yayotgan talabi adolatli bo‘lmog‘i kerak. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo‘lgan chuqur ishonchi ifodalanadi. Bu insoniylikning namoyon bo‘lishi, ya’ni rivojlanayotgan bola shaxsi to‘g‘risida, o‘ziga va jamiyatga foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir. Odatda, bolalar murosasozlik va oliftagarchilikni—betayinlik, o‘ta muruvvatni — mas’uliyatsizlik, prinsipsizlik deb tushunadilar. Aksincha, yaxshi niyat bilan qilingan oqilona talabchanlik — qattiqqo‘l muallimga bolaning hurmati va minnatdorligini oshiradi.

**7- mikrokeys..** To‘lqin maktabda quyi sinflarda past baholar olib o‘qirdi. Sakkizinchi sinfga o‘tganida fizika o‘qituvchisi D. SH. juda talabchan, hech kimni erkalatib qo‘ymaydigan kishi bo‘lib chiqdi. Muallim uni doskaga chiqaradi. To‘lqin fizikaga doir masalani echa olmaydi. O‘qituvchi unga boshqa masalani beradi va o‘sha boshlagan usuli bilan echishni aytadi.

Nihoyat u, masalani to‘g‘ri echadi. O‘qituvchi: «Mening fikrimcha To‘lqin, sen uchun bu oddiy masala. Sen murakkabroq masalalarni ham echa olasan, faqat, ko‘proq ishlash kerak» deydi. Bu gap bolaga ijobiy ta’sir etadi, u darslarni ko‘proq tayyorlaydigan bo‘ldi, ayniqsa fizikaga qiziqib qoldi. Maktabni bitirgach, texnika universitetiga o‘qishga kirdi. Muhandislik kasbini egalladi. Bir kuni To‘lqin o‘quvchilik yillarini eslab bunday dedi: «Fizika o‘qituvchimiz kattiqqo‘l, talabchan edi. U bizni boshqa fanlarga qaraganda fizikani ko‘proq o‘qishga majbur etardi.



Biz uning aytganlarini bajarar edik, chunki u yaxshi odam, hatto do‘stimiz edi».

O‘qituvchi avvalo, o‘ziga talabchan bo‘lmog‘i kerak, shundagina bolaga nisbatan qo‘yayotgan talablari o‘rinli, samarali bo‘ladi. Aks holda uning «talabchanligi» bolaning g‘ashini keltirishi va o‘quvchilar uni bajarmasliklari mumkin. Bolaga biror topshiriq berayotganda u o‘quvchining kuchiga mosligi, bola uni bemalol bajara olishiga muallimning ishonchi komil bo‘lsin. Bola oldiga qo‘yiladigan talablar, unga berilayotgan vazifalar sekin-asta murakkablashtirila borishi, o‘quvchilarning qobiliyati, individual xususiyatlarini hisobga olib tabaqalashtirilishi lozim.

Muallim har qancha hushyor, ehtiyotkor bo‘lsa ham sinfdagi hamma bolalarning ruhiy holatini, iztiroblarini bilmasligi mumkin. Bu ishda muallim sinf bolalar jamoasining ko‘magiga tayanmog‘i lozim. Sinf jamoasi boshiga tashvish tushgan bolaning holidan xabardor, unga hamdard bo‘lishiga erishmoq kerak. SHunda muallim bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala natijasida sodir bo‘ladigan ayrim xatolarning oldini olish imkoni tug‘iladi.

# **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

## MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. Pedagogik texnologiyaning tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlari.
2. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.
3. Ta'lim innovatsiyalari va ularning mohiyati.
4. Ta'lim innovatsiyalarining turlari.
5. Novatsiya va innovatsiya: ular o'rtasidagi farqlar.
6. Innovatsion faoliyat mazmuni.
7. Pedagogning innovatsion faoliyati.
8. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish.
9. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.
10. O'quvchilarning bilish faolligini oshiruvchi innovatsion ta'lim shakllari.
11. Amaliy o'yinlar va ularning didaktik ahamiyati.
12. Muammoli o'qitish mohiyati.
13. Interfaol darslar va ularni samarali tashkil etish shartlari.
14. Modulli-kredit tizimi.
15. Masofali o'qitishning afzalliklari va muammolari.
16. Blended learning (aralash o'qitish) mohiyati.
17. Mahorat darslari va ularni tashkil etish texnologiyasi.
18. Interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish.
19. "Sase-study" (Keys-stadi) mohiyati.
20. "Assesment" metodining didaktik imkoniyatlari.
21. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion vositalar.
22. O'quv loyihalarini ishlab chiqish.
23. O'quvchilar portfoliolari va ularni shakllantirish.
24. Pedagogik kompetentlik va uni samarali shakllantirish.
25. Pedagogik kompetentlik sifatleri.
26. Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi.
27. "Individual rivojlanish dasturi" va uning pedagog faoliyatidagi ahamiyati.
28. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari.
29. O'qituvchining kommunikativ kompetentligi.
30. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga kommunikativ ta'sir ko'rsatish.
31. Pedagogik muloqot uslublari va ularni to'g'ri tanlash.
32. Pedagogik deontologiya.
33. Pedagogik muloqot madaniyati.
34. Ta'lim jarayonida pedagogik muloqot uslublarini o'rinli qo'llash.
35. Pedagogik nizolar va ularni samarali hal etish yo'llari.
36. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar.

37. Pedagogik nizolarni hal etishda qoʻllaniladigan usullar.
38. Pedagogik nizolarni samarali hal etish yoʻllari.
39. Zamonaviy pedagog imiji.
40. Pedagogik kreativlik va unga xos sifatlar.
41. SHaxs kreativligini aniqlovchi psixologik testlar.
42. Pedagogning kreativlik potentsiali.
43. Pedagogda kreativlik potentsialini rivojlantirish metodlari.
44. Pedagog kreativ potentsialining tarkibiy asoslari.
45. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar.

# **GLOSSARIY**

## VII. GLOSSARIY

| <b>Termin</b>  | <b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>   | <b>Ingliz tilidagi sharhi</b>  |
|--|---|--|
| <b>Algoritm<br/>Algorithm</b>  | Modul ta’limi tarkibiy bo‘laklarining o‘zaro joylashishi hamda texnologik jarayonni amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartib-qoidalari                                 | Rules initially established to realize an interposition of parts of module education and sequence of technological process   |
| <b>Aralash model<br/>Mixed model</b>                                 | Masofaviy ta’limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model  | Model based on various forms distance learning and integration of some forms   |
| <b>Aralash o‘qitish<br/>Blended learning</b>                         | Onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli   | A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials   |
| <b>“Assesment”<br/>texnologiyasi<br/>“Assessment<br/>technology”</b> | O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami  | A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students   |
| <b>Axborotli loyihalar<br/>Information<br/>projects</b>              | O‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta’limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar                                 | Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process   |
| <b>Validatsiya<br/>Validation</b>                                    | Ta’lim mahsuloti, ta’lim xizmatlari yoki ta’lim tizimi iste’molchilari ehtiyojlarining qondirilishi   | Satisfaction of interests of customers in educational and service system   |
| <b>Vebinar<br/>texnologiya<br/>Webinar<br/>technology</b>            | Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta’lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yok hodisalar | Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies |

|   |  |  |
|---|--|--|
|   | bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyasiya)lar   |  |
| <b>Dars ishlanmasi</b><br><b>Lesson planning</b>    | Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat   | An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence   |
| <b>Dasturiy ta'lim</b><br><b>Program education</b>  | 1) o'qitishning o'quvchi, o'quvchilar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri | 1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies                |
| <b>Dramatik o'yinlar</b><br><b>Dramatic games</b>   | Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar   | Games intended for solving psychologic and social issues   |
| <b>Didaktik o'yinlar</b><br><b>Didactic games</b>   | O'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi   | A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied   |
| <b>Ijodiy loyihalar</b><br><b>Creative projects</b> | Indiviuual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar                    | The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative |

|  |   |  |
|--|---|--|
|  |   | characteristics based on cooperation and individual activity   |
| <b>Imitatsion o‘yinlar</b><br><b>Imitation games</b>     | Ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida o‘quvchilarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘yinlar                 | Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories                               |
| <b>Invigilator</b><br><b>Invigilator</b>                 | Masofaviy ta‘lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog   | A specialist-pedagog who controls the results of teaching in the frames of distance learning   |
| <b>Individual ta‘lim</b><br><b>Individual education</b>  | Ta‘lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar o‘quvchi bilan yoki o‘quvchining ta‘lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ta‘lim | Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process |
| <b>Innovatsion ta‘lim</b><br><b>Innovative education</b> | O‘quvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘lim   | Education that allows to develop skills and qualities f a student  |
| <b>Innovatsion faoliyat</b>                              | YAngi ijtimoiy talablarning an’anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi   | An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of  |



|   |  |  |
|---|--|--|
| <b>Innovative activity</b>  | shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat   | rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards  |
| <b>Innovatsiya<br/>Innovation</b>                                     | Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat   | An activity aimed at changing the internal structure of a certain system   |
| <b>Interfaol ta'lim<br/>Interactive<br/>aducation</b>                 | O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim  | The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde  |
| <b>Ishbilarmonlik<br/>o'yinlari<br/><br/>Business games</b>           | Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar                               | Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their effective and proper organization   |
| <b>“Keys-stadi”<br/>texnologiyasi<br/>“Case study”<br/>technology</b> | Muammoli vaziyat; o'quvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya                               | A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems   |
| <b>Kompyuter ta'limi<br/><br/>Computer<br/>education</b>              | O'quvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, | The education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling |

|  |  |   |
|--|--|---|
|  | telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim  | the activity of an independent education and self-control of students   |
| <b>Kompyuter ta'limi texnologiyalari</b><br><br><b>Computer education technologies</b> | O'quvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui | A set of forms, means and methods of education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and self-control of students |
| <b>Konsorsium</b><br><b>Consortium</b>   | Masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma  | A union of two universities that organize a distance learning   |
| <b>Loyihalash</b><br><br><b>Projecting</b>   | Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat   | An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means   |
| <b>Loyiha</b><br><br><b>Project</b>  | Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli  | A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness  |
| <b>Loyiha metodi</b><br><br><b>A method of project</b>                                 | O'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchining o'zini mustaqil namoyon qilishini  | A set of educational methods that allow individualization of educational process,   |

|  |   |  |
|--|---|--|
|  | rejalashtirish, o‘z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta’lim metodlari majmui  | independent planning of students’ performance, control and proper organization of an activity  |
| <b>Loyiha ta’limi</b><br><b>A study of project</b>                               | Ta’limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta’lim  | Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics  |
| <b>Masofaviy ta’lim</b><br><b>Distance learning</b>                              | Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdagi an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim | Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.) |
| <b>Masofaviy ta’lim texnologiyalari</b><br><b>Distance learning technologies</b> | Ta’limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir  | A set of forms, methods and means used for increasing effectiveness of education and educational process   |
| <b>Mahorat darslari</b><br><b>Master classes</b>                                 | Ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilgan samarali o‘qitish shakli   | An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences  |
| <b>Moderator</b><br><b>Moderator</b>   | Masofaviy ta’lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog   | A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning   |
| <b>Modellashtirish</b><br><b>Modeling</b>  | Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to‘la yorituvchi   | Developing a model that discloses principal essence of an event, process and   |

|   |  |  |
|---|--|--|
|   | modelni yaratish   | system   |
| <b>Model</b><br><b>Model</b>                        | Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi   | A simplified or lessened copy of a real and authentic object   |
| <b>Modernizatsiya</b><br><b>Modernization</b>       | Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi   | Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations  |
| <b>Modul</b><br><b>Module</b>                       | 1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun;<br>2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama;<br>3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi                                 | 1) units that consists of interrelated elements in the system;<br>2) notion meaning parts that create a certain technology;<br>3) logically completed units of study materials   |
| <b>Modul ta'limi</b><br><b>A study of module</b>    | O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materialini mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi  | A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps  |
| <b>Muammoli vaziyat</b><br><b>Dilemma</b>           | O'quvchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi | It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment |
| <b>Muammoli ma'ruza</b><br><b>A problem lecture</b> | O'qituvchi tomonidan o'quvchini muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali  | A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma  |

|   |   |   |
|---|---|---|
|   | unda bilish faolliyatini oshirishga yoʻnaltirilgan maʼruza  |   |
| <b>Muammoli taʼlim</b><br><b>Problem education</b>                              | Oʻquvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim  | Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions  |
| <b>Muammoli taʼlim texnologiyalari</b><br><b>Problem education technologies</b> | oʻquvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan taʼlim texnologiyalari  | The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions  |
| <b>Muammo Problem</b>   | Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan masala   | an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved   |
| <b>Mustaqil taʼlim</b><br><b>Independent learning</b>                           | OTM oʻquvchilarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida oʻquv hamda mutaxassislik fanlari boʻyicha maʼruza, seminar va amaliy mashgʻulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil oʻzlashtirilishini taʼminlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yoʻnaltirilgan taʼlim | education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs |

|   |   |  |
|---|---|--|
| <b>Novatsiya</b><br><b>Novation</b>                           | Tizimdagi ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat  | An activity that serves to change certain elements in the system   |
| <b>Pedagogik muammo</b><br><b>Pedagogical problem</b>         | Hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala  | A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution   |
| <b>"Portfolio"</b><br><b>Portfolio</b>                        | Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to'plami   | A set of autobiographical documents  |
| <b>Repetitorlik ta'limi</b><br><b>Tutoring</b>                | Individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi  | A modern type of popular individual learning   |
| <b>Rivojlanish</b><br><b>Development</b>                      | SHaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon           | A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and intellectual development                 |
| <b>Rivojlantiruvchi ta'lim</b><br><b>Developing education</b> | O'quvchilarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim   | Education aimed at revealing and developing students' inner capacities   |
| <b>Rolli o'yinlar</b><br><b>Role-playing games</b>            | Ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar         | Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations |
| <b>Syujetli o'yinlar</b><br><b>Plot games</b>                 | Pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar | Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations          |
| <b>Tadqiqot loyihalari</b><br><b>Projects of</b>              | Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar  | Projects that have scientific study characteristics  |

|   |   |   |
|---|---|---|
| <b>research works</b>   |   |   |
| <b>Ta'lim jarayonini loyihalashtirish</b><br><b>Projecting the educational process</b>  | O'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati  | A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment   |
| <b>Ta'lim innovatsiyalari</b><br><b>Educational innovations</b>                         | Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar  | Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results  |
| <b>Tayanch konspekt</b><br><b>Reference conspect</b>                                    | Nazariy o'quv materiali (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi surat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da ifodalovchi konspekt   | A conspect about theoretical learning materials (information) depicted with graphic pictures (brief conclusion, explaining pictures, signs, schemes, charts)  |
| <b>Ta'lim tizimini modernizatsiyalash</b><br><b>Modernization of educational system</b> | Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi | Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs |
| <b>Texnologik model (passport)</b>  | Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning   | A document that reveals main indicators of education or spiritual and   |

|   |  |   |
|---|--|---|
| <b>Technological model (passport)</b>                               | texnologik tavsifini yorituvchi hujjat   | educational events and their technological characteristics  |
| <b>Texnologik xarita</b><br><b>Technological map</b>                | Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat  | A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object   |
| <b>Tyutor</b><br><b>Tutor</b>                                       | O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan o'quvchi o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy  | A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer   |
| <b>Uzoqlashtirilgan auditoriyalar</b><br><b>Distant auditoriums</b> | Bir oliy o'quv yurtida tashkil etilayotgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lim muassasalarining o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko'rinishida uzatilishi | A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums                               |
| <b>Fasilitator</b><br><b>Facilitator</b>                            | Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini natijasini muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog                          | A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups |
| <b>Franchayzing</b><br><b>Franchising</b>                           | O'zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o'zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy  | Rights that are given by partner universities to other universities for carrying out distance learning  |



|  |   |  |
|--|---|--|
|  | ta'lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi  | courses  |
| <b>SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim</b><br><b>Student-centered education</b>                | O'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim  | Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies  |
| <b>SHaxsni rivojlantirish</b><br><b>Developing an individual</b>                         | Individida vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni  | A process of occurring physical and psychological changes in an individual   |
| <b>Edvayzer</b><br><b>Advisor</b>  | Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining o'quvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi   | An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students   |
| <b>O'yin</b><br><b>Game</b>  | Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli   | An important type of individual's activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children  |
| <b>O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi)</b><br><b>Game technologies (game learning)</b> | Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri | One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student |
| <b>O'quv loyihasi</b><br><b>Learning project</b>   | 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv  | 1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a   |

|  |   |   |
|--|---|---|
|  | <p>faoliyatini tashkil etish usuli;</p> <p>2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi;</p> <p>3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita</p> | <p>product;</p> <p>2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge;</p> <p>3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence</p> |
| <p><b>O‘quv topshiriqlari</b></p> <p><b>Study assignments</b></p>                                | <p>O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta’limiy vazifalar yig‘indisi</p>   | <p>A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject</p>   |
| <p><b>Hamkorlik ta’limi</b></p> <p><b>Cooperation education</b></p>                              | <p>O‘quv jarayonida o‘quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-o‘quvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta’lim</p>  | <p>Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process</p>  |
| <p><b>Hamkorlik ta’limi texnologiyalari</b></p> <p><b>Cooperation education technologies</b></p> | <p>O‘quv jarayonida o‘quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-o‘quvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyalar</p>                       | <p>Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process</p>         |

# **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

## **Foydalanish tavsiya etiladigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxati:**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 80 b.

6. Mirziyoev SH.M. “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muxim mezonidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, gazetasi, 2019 yil 8 dekabr, 254-son.

7. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.–176 b.

8. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.–440 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 13 aprel “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ—280 Qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi “Respublika aholisini Axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-381 qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 fevraldagi “2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1487 qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi. “Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish tizimini rivojlantirish, kitob mutoolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qumitasining 2014 yil 20 fevraldagi «Axborot kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash hakida» 75-sonli qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2009 yil 6 yanvardagi “Umumta‘lim maktablarining kutubxonalari fondi hisobidan, akt asosida ro‘yxatdan chiqarilgan, foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni utilizatsiya qilish to‘g‘risida”gi 1 sonli buyrug‘i.

14. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2011 yil 11 avgustdagi “Umumta‘lim muassasasi kutubxonasi to‘g‘risidagi nizom va kutubxonalar fondini to‘ldirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 189-sonli buyrug‘i.

### **Mutaxassislik bo‘yicha adabiyotlar.**

1. G‘anieva D.A. “Ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot- resurs markazlarining roli” -T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009

2. G‘anieva D.A., Ratner R.I. “Ta‘lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish”.-T., YAngi asr avlodi, 2013

3. G‘anieva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni an‘anaviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma‘rifiy tadbirlarning roli –T.: “Tafakkur”nashriyoti,2017.-440b.

4. G‘anieva D.A, Umarova I.P. Axborot resurs markazi. O‘UM-2017y.

### **Elektron ta‘lim-tarbiya resurslari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
2. Toshkent davlat pedagogika universiteti: [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
3. Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)
4. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: [www. Ziyo](http://www.Ziyo)